

POSTDA



Gazeta 1930-yil 12-maydan
chiqa boshlagan

НА ПОСТЫ * AT THE POST

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri



MILLAT FIDOYILARI NOMI BARHAYOT

Ishonchim komil, yuzlab marhum bahodir harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining nomlari zarhal harflar bilan muhrlab qo'yilgan ushbu muhtasham badiiy obida el-yurtimiz chin dildan intiladigan va faxrlanadigan yana bir mo'tabar maskan bo'lib qoladi.

Shavkat MIRZIYOYEV



17

USHBU SONDA:

TANQIDIY TAHLIL ASOSIDA, QAT'IY JAVOBBGARLIK RUHIDA

Joriy yilning birinchi choragida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda istiqboldagi vazifalar yuzasidan Ichki ishlar vazirligining hay'at yig'ilishi bo'lib o'tdi.

2

BEDOR TUNLAR HALOVATI



Poytaxtimiz kunduzi qanchalik fusunkor bo'lsa, tunda ham shunchalik tarovatli bo'ladi.

Biz tungi xizmat jaryonlarini kuzatish va soha xodimlarining mashaqqatli faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida Chilonzor tumani II OFMBga yo'l oldik.

3

VIRTUAL MASHHURLIK ISHTIYOQI



yoxud real
mas'uliyatsizlik

19

IIV hay'ati yig'ilishi

TANQIDIY TAHLIL ASOSIDA,
QAT'IY JAVOGBARLIK RUHIDA

Joriy yilning birinchi choragida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda istiqboldagi vazifalar yuzasidan Ichki ishlar vazirligining hay'at yig'ilishi bo'lib o'tdi. Videoselektor tarzida tashkil etilgan yig'ilishda IIV markaziy apparati va hududiy ichki ishlar organlari rahbarlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlash, ichki ishlar organlarini xalqchil tuzilmaga aylantirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotgani, bu masalalar davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida ekanligini alohida ta'kidladi.

Hay'at yig'ilishida respublika hududida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash borasidagi faoliyat natijadorligi, raqamlashtirish, ijrochilik va xizmat intizomini mustahkamlash hamda ushbu yo'nalishlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklar tanqidiy muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, birinchi chorak mobaynida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlarning **83,8 foizi** fosh etilib, jabrlangan fuqarolarning haq-huquqlari ta'minlangan. Jinoyatlarni aniqlash ko'rsatkichi esa **37,1 foizga** yaxshilanishiga erishilgan.

Shuningdek, sud va tergov organlaridan yashirinib, javobgarlikdan qochib yurgan qidiruvdagi **2193 nafar shaxs** qo'lga olingan bo'lsa, bedarak yo'qolgan **1187 nafar shaxsning** hayoti xavfli vaziyatlardan saqlab qolingani va ular oilasi bag'riga qaytarilgan. Mas'ullarning hisobotlariga ko'ra, dastlabki uch oy davomida o'tkazilgan tezkor-profilaktik tadbirlar



natijasida noqonuniy muomaladan **872 kg giyohvandlik moddalarini** va **296 ming 851 dona kuchli ta'sir qiluvchi dori vositalari** olinib, **12 ta narkolaboratoriya** faoliyatiga chek qo'yilgan.

Vazirlik tizimida kiberjinoyatlariga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan tizimli ishlar natijasida o'tgan uch oy davomida **3554 ta kiberjinoyat** fosh etildi, **1125 ta jinoyat** tashabbus bilan aniqlandi va **5 ming nafardan ortiq fuqaroga** yetkazilgan qariyb **50 mird so'mlik moddiy zarar** qaytarildi.

Tezkor-qidiruv tadbirlari bilan birga mahallada jinoyatchilikni bartaraf etish bo'yicha yo'lga qo'yilgan ilmiy yondashuv samaralar berayotganligi raqamlarda o'z

ifodasini topmoqda. O'tgan uch oy ichida respublikadagi **8992 ta mahallaning 7 309 tasi (81,3%) «yashil» toifada qolgan bo'lsa, 99 ta tumanda birorta ham «qizil» toifadagi mahalla** qayd etilmadi.

Tobora shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonamizni raqamlashtirish va elektron xizmatlarsiz

gi ulkan mas'uliyat ekanligini his etishi, bu borada har bir rahbar avvalo o'zi namuna bo'lishi zarurligi uqtirildi.

Hay'at yig'ilishida jinoyatlarning ba'zi turlari bo'yicha o'sish kuzatilgan viloyatlar, shahar va tuman ichki ishlar organlari rahbarlarining hisobotlari tinglandi hamda bir qator rahbarlar kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ogohlantirildi.

Hay'at yig'ilishida o'tgan vaqt davomida respublikada muayyan ijobiy natijalar qo'lga kiritilganiga qaramasdan, ayrim hududlarda jinoyatlarning barvaqt oldini olishda kuzatilayotgan kamchiliklar aytib o'tildi. Shuningdek, kelgusida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatchilikka nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish, aholining muammolarini hal qilish orqali ularning ishonchini oqlash zarurligi alohida ta'kidlanib, huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo'l harakati va jamoat xavfsizligini ta'minlash hamda sohani raqamlashtirishda sustkashliklarga yo'l qo'yayotgan bo'linmalar faoliyati keskin tanqid qilindi.

– Har bir ichki ishlar organlari xodimi xalqning himoyachisi sifatida fuqarolarimiz xavfsizligi va og'irini yengil qilish uchun qilayotgan ezgu ishni sharaf va savob deb bilishi lozim, – dedi vazir o'z ma'ruzasida. – Tizimimizda o'tkazilayotgan islohotlarning samarasi ularning o'z vaqtida, to'liq, sifatli va ko'zlangan maqsadga yo'naltirib joriy etilishiga bevosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, har bir xodim, egallab turgan lavozimining katta-kichikligidan qat'i nazar, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan, vijdonan bajarishi, o'zini Vatan taqdiriga daxldor deb bilib, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlash yo'lida bor bilim va tajribasini safarbar etishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, xalq, jamiyat va davlat manfaatlarini ishonchli himoya qilishi zarur.

Xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishgan bir guruh xodimlar Ichki ishlar vazirining buyrug'i bilan munosib rag'batlantirildi. Faoliyati davomida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ygan bir qator rahbar va xodimlarga nisbatan esa intizomiy ta'sir choralari ko'rildi.

Yuqori natijalarga erishgan hududlar tajribasidan o'rnak olish, ularning ish uslublarini joylarga tatbiq qilish, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berildi.

IIV hay'at yig'ilishi yakunida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar muhokama qilinib, galdagi vazifalar belgilab olindi.

Azizjon FAYZIYEV,
podpolkovnik.



BEDOR TUNLAR HALOVATI

Poytaxtimiz kunduzi qanchalik fusunkor bo'lsa, tunda ham shunchalik tarovatli bo'ladi. Ayniqsa, aholi zich va ko'p yashaydigan tumanlardan biri – Chilonzorda tungi hayot sokinlik bilmaydi. Biz tungi xizmat jarayonlarini kuzatish va soha xodimlarining mashaqqatli faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida tuman IIOFMBga yo'l oldik.

Soat 20:00. Tuman IIOFMBda shaxsiy tarkibning navbatdagi xizmatoldi yo'riqnomasida «Xavfsiz poytaxt» konsepsiyasi doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi. Yo'riqnomaga yakunlangach, har bir sohaviy xizmat xodimlari o'zlariga birlashtirilgan hududlarga safarbar etildi, biz esa tungi xizmatning qaynoq jarayonlarini kuzatish uchun ularga hamrohlik qildik.

Har bir hududiy IIB boshliqlarining tungi xizmat bo'yicha o'rinbosarlari tomonidan jarayonning borishi qat'iy nazoratga olingan.

Ilk manzilimiz – «Mehrjon» va «Botirma» mahallalarini bog'lab turuvchi, Al-Xorazmiy ko'chasida joylashgan sayilgoh bo'ldi. Tun-u kun – 24 soat davomida faoliyat yurituvchi ushbu gast-



bo'yicha o'rinbosari, mayor Shuhrat Yangiboyev hamrohligida aholining mazmunli hordiq chiqarishi uchun yaratilgan sharoitlar, ko'rilayotgan xavfsizlik choralari bilan tanishdik.

– Bu yerda ikkita zamonaviy favvara, yirik savdo markazi, bolalar maydon-

matining tezkor guruhlari doimiy hamkorlikda xizmat olib boradi.

Sayilgohda hordiq chiqarayotgan fuqarolarning kayfiyati bilan qiziqib, ulardan birini suhbatga tortdik.

– Gastronomik ko'chani ochilishi biz uchun zo'r sovg'a bo'ldi, – deydi «Botirma» mahallasida istiqomat qiluvchi Dilafro'z Hafizova. – Ochig'i, ilgari kechki payt sayr qilishga biroz ikkilanardik. Hozir esa bu yerdagi ajoyib manzarani ko'rib, bahri dilingiz ochiladi. Farzandlarimiz bolalar maydonchasida vaqtini chog' o'tkazsa, biz do'konlarda bemalol xaridlarni amalga oshiramiz. Eng muhimi, barcha xavfsizlik choralari ta'minlangan, o'zimizni xotirjam his qilamiz.

Kuzatuvlarimiz hududdagi osoyishtalik o'z-o'zidan bo'lmayotganini, balki mas'uliyatli xizmat mahsuli ekanini ko'rsatdi. Navbatdagi manzilda «Mehrjon» mahallasi profilaktika inspektori, leytenant Sardor Sobir-

Bunday holat nafaqat jamoat tartibini buzishi, balki fuqaroning hayoti va sog'lig'i uchun ham xavf tug'dirishi mumkin. Shu sababli, xodim tomonidan tegishli tartibda bayonnoma rasmiylashtirildi va ushbu shaxs tibbiy yordam ko'rsatish uchun shifoxonaga joylashtirildi.

Tun yarmidan oqqanida biz tezkor guruh bilan birga «Beshqo'rg'on» mahallasi tomon yo'l oldik. Soat millari

shu tun davomida shaxsiy tarkib tomonidan 31 ta huquqbuzarlik holati aniqlangan. Bundan tashqari, 33 ta profilaktik suhbat o'tkazilib, 28 ta maktab va maktabgacha ta'lim tashkiloti atrof hududlari ko'zdan kechirildi. Shuningdek, shubhali deb topilgan 110 nafar shaxs xizmat plansheti orqali tekshirilib, ular bilan tushuntirish ishlari olib borildi.

Toshkent shahar IIBB YHXB YPX brigadasi 4-batalyoni xodimlari – kichik serjantlar Furqat Xolmo'minov, Azamat Alimov va safdor Mirfozil Nosirov bilan xizmat vazifasini o'tash jarayonida suhbatlashdik. Aytish joizki, ushbu xodimlarning hushyorligi tufayli bir nechta jiddiy qoidabuzarliklar fosh etildi. Jumladan, ikki holatda haydovchilar tegishli hujjatlarsiz avtomobil boshqargani, yana bir holatda transport vositasi o'zboshimchalik bilan qayta jihozlangani aniqlandi. Yana bir vaziyatda esa haydovchi xodimning qonuniy talablariga bo'ysunmaslikka harakat qilgan, biroq unga nisbatan qonun ustuvorligi ta'minlangan.



ronomik ko'cha aholi bilan gavjum.

Sayilgoh bo'ylab yurarkansiz, tungi salqin havo, chiroqlar nurida jilolanayotgan favvoralarning shildirashi ko'nglingizga o'zgacha huzur bag'ishlaydi. Odamlar yuzidagi xotirjamlik, osuda muhit va sayilgohdagi tartib-intizom e'tiboringizni tortadi.

4-sonli IIB boshlig'ining tungi xizmatni tashkil etish

chasi va ko'plab savdo shoxobchalari aholi ixtiyorida, – deydi mayor Sh. Yangiboyev. – Xavfsizlikni ta'minlash maqsadida sayilgoh to'liq videokuzatuv kameralari va tezkor aloqa vositalari – «tashvish tugmalari» bilan jihozlangan. Hududda Patrol-post xizmati avto va piyoda patrullik yo'nalishlari, profilaktika inspektorlari hamda qo'riqlash xiz-



tungi 01:48 ni ko'rsatganida, xonadonlarning birida shovqin va notinchlik bo'layotgani haqida murojaat kelib tushgan edi.

Voqea joyiga birinchilardan bo'lib yetib borgan katta leytenant Jaloliddin Mamatqulov vaziyatni zudlik bilan nazoratga oldi. Fuqarolarning tungi osoyishtaligini buzgan shaxsga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning tegishli moddasiga asosan huquqiy chora ko'rildi.

Jarayon davomida tuman IIOFMB JTSB PPX 1-otryad xodimlarining xizmat faoliyati bilan ham tanishdik. Otryad komandirining o'rinbosari, kapitan Oybek Salayevning ma'lum qilishicha, birgina

Siz-u biz uyimizda, oila davrasida xotirjamlikdan bahra olayotgan, osuda uyquga ketgan bir paytda ichki ishlar organlari xodimlarining bedorlik bilan o'tayotgan xizmat faoliyati tufayli tinchlik va osoyishtalik ta'minlanmoqda.

...Tungi xizmat nihoyasiga yetdi, ammo osoyishtalik posbonlari uchun «dam olish» tushunchasi nisbiy. Zotan, tun o'rnini kun egalaydi, xavfsizlikni ta'minlash zanjiri bir lahza bo'lsin uzilmaydi.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.
Ikrom HASANOV
olgan suratlar.

Toshkent shahri.



jonovning hushyorligiga guvoh bo'ldik. U jamoat joyida o'zini boshqara olmaydigan darajada mast holda bo'lgan fuqaroni to'xtatdi.

Insonparvarlik

KATTA IMKONIYAT

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 17-martdagi tegishli farmoniga asosan afv etilib, ozodlikka chiqarilgan bir guruh shaxslar bilan Qarshi shahar hokimligi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari ishtirokida ochiq muloqot o'tkazildi. Unda Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan insonparvarlik va adolat tamoyillariga asoslangan afv siyosati yuzlab yurtdoshlarimiz uchun yangi hayot boshlash yo'lida katta imkoniyat ekani alohida ta'kidlandi.



Qayd etish joizki, shu paytga qadar jazodan ozod etilgan shaxslarning ijtimoiy-maishiy muammolarini o'rganish hamda hal qilish bo'yicha tizimli choralar ko'rildi. Xususan, jazoni ijro etish muassasalaridan muddatidan ilgari ozodlikka chiqqan «Buyuk Turon» va «Arabxona» mahallalarida yashovchi fuqarolar D.D. hamda I.D. Probatsiya xizmati hisobiga olindi. Ularga bir martalik moddiy yordam puli ajratilib, yangi ID-kartalar rasmiylashtirib berildi. Shuningdek, fuqaro D.D. ko'p tarmoqli tibbiyot birlashmasida tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Shaharning «Naxshab» mahallasida istiqomat qilayotgan B.S.ning ham yashash sharoiti chuqur o'rganildi. Unga zarur ijtimoiy yordam ko'rsatildi va fuqaro ishga joylashtirildi.

Muloqot davomida nazoratdagi shaxslarga berilgan bu imkoniyatning qadriga yetish, sog'lom turmush tarziga qaytib, oilasi bag'rida munosib hayot kechirish lozimligi tushuntirildi. Ozodlikka chiqqan yurtdoshlarimiz ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik uchun minnatdorlik bildirib, kelgusida yurt ravnaqi uchun halol mehnat qilishga va'da berdilar.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

Kinologiya xizmati

MEHR VA MAHORAT UYG'UNLIGI

Kinolog shunchaki it o'rgatuvchi emas, balki tilsiz jonotning tilini topgan, uning sadoqatini xayrli ishga yo'naltira olgan ruhiyat me'mori bo'lishi lozim. Zero, shundagina kutilgan natijalar qo'lga kiritiladi.



Kuzatuvlarga ko'ra, xizmat itiga bitta buyruqni mukammal o'rgatish uchun yuzlab, kerak bo'lsa, minglab takrorlash talab etiladi. Aynan shu mashaqqatli jarayonda kinologning temirdek mustahkam irodasi va beqiyos sabri namoyon bo'ladi. U aslo toliqmaydi, asabiylashmaydi va tushkunlikka tushmaydi. Zero, u bir haqiqatni chuqur anglaydi: sabr va matonat bilan yengilgan har bir to'siq – ertaga asrab qolinadigan inson hayoti, tinchligimizga tahdid soluvchi xavfning bartaraf etilishi yoki jinoyatning «issiq izida» fosh etilishi demakdir.

Bugungi kunda bo'linma tasarrufidagi 52 bosh xizmat iti xodimlar uchun shunchaki hamroh emas, balki osoyishtaligimizning jonli kafolati va jinoyatchilikka qarshi qo'yilgan mustahkam qalqondir. Ularning har biri o'ziga xos fe'l-atvor va xizmat yo'nalishiga ega. Biri giyohvandlik vositalarining izini kessa, boshqasi xavfli portlovchi moddalarni soniyalar ichida aniqlaydi. Zero, ularning barchasini yagona maqsad yo'lida birlashtirib turgan qudratli kuch bor – kinolog xodimlarning cheksiz mehri va yuksak matonatidir.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir, katta serjant.
Toshkent viloyati.

Biz korrupsiyaga qarshimiz

HALOLLIK
BOSH MEZON

Davlatimiz rahbari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish masalasiga davlat miqyosida yondashilayotgani, xususan, 2026-yilda bu borada favqulodda choralar ko'rilishi belgilangani bizdan yanada qat'iyat va fidoyilikni talab etadi.

O'tgan yil davomida viloyat ichki ishlar organlarida korrupsiyaning oldini olish maqsadida aniq natijadorlikka qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirildi. Xususan, 16 ta ichki dastur va «yo'l xaritasi» ishlab chiqilib, ular ijrosini ta'minlash bo'yicha 78 marotaba profilaktik ogohlantiruv yig'ilishlari tashkil etildi. Shuningdek, xodimlar



va ularning oila a'zolari bilan 62 marotaba ochiq muloqotlar o'tkazildi.

Targ'ibot ishlarini kuchaytirish maqsadida 18 ta maxsus videolavha tayyorlanib, ommaviy axborot vositalari orqali keng namoyish etildi. Bu orqali nafaqat tizim ichida, balki jamiyatda ham ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Shuni ochiq tan olish kerakki, amalga oshirilgan tizimli ishlarga qaramay, o'tgan yili sohada bitta korrupsion holat aniqlangani bizni chuqur mushohada yuritishga undadi. Ushbu voqea korrupsiyaga qarshi kurashish shunchaki yig'ilish yoki hujjatlardan iborat emasligini, balki har bir xodimning ma'naviy dunyosi, vijdoni va shaxsiy mas'uliyatiga bog'liq ekanini yana bir bor isbotladi.

Men o'z faoliyatimda profilaktika, shaffoflik va halollik tamoyillarini eng ustuvor mezon deb bilaman. Ishonchim komilki, agar har bir xodim o'z qasamyodiga va xizmat vazifasiga sadoqat bilan yondashsa, tizimda korrupsiyaga aslo o'rin qolmaydi. Zotan, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat – bu shunchaki xizmat talabi emas. Bu – mening qat'iy hayotiy pozitsiyam va rahbarlik faoliyatimning bosh tamoyilidir.

Shavkat IBRAGIMOV,
Xorazm viloyati IIB Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik.

Istiqbolli hamkorlik

XAVFSIZLIK VA OCHIQLIK: DAVR NAFASI

Toshkent – mamlakatimiz poytaxtigina emas, hayot sur'ati bir lahza ham to'xtamaydigan yirik megapolis. Azim shahar osoyishtaligini ta'minlashga ichki ishlar organlari, xususan, zamon bilan hamnafas odimlayotgan, hushyorlik va sadoqatni shior qilgan qo'riqlash xizmati xodimlarining hissasi beqiyos.



Toshkent shahar IIBB huzuridagi Qo'riqlash boshqarmasida tashkil etilgan press-tur amalga oshirilgan ishlarni tahliliy ko'zdan kechirgan, yutuq va kamchiliklarni xolis muhokama qilgan ochiq muloqot maydoniga aylandi.

Press-tur davomida sohada amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan natijalar va istiqboldagi vazifalar haqida atroflicha so'z bordi. Jamoatchilik vakillari va ommaviy axborot vositalari xodimlariga zamonaviy axborot texnologiyalari hamda intellektual qo'riqlash tizimlarining afzalliklari haqida batafsil ma'lumot berildi. Sohaviy xizmatga aynan innovatsion texnologiyalarning izchil joriy etilishi natijasida qo'riqlovdagi obyektlarda xavfsizlik darajasi sezilarli darajada oshgani alohida qayd etildi.

Shundan so'ng IIV huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Unda ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, erishilgan muhim natijalar va galdagi ustuvor vazifalar muhokama markazida bo'ldi.

Yig'ilishda mahallalarda xavfsiz muhitni qaror toptirish, jamoat tartibini mustahkamlash hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasidagi

manzilli chora-tadbirlar kuchaytirilgani ijobiy baholandi.

Ta'kidlanganidek, «Poytaxt namunasi» asosida joriy etilgan uch bosqichli xizmat tartibi amaliyotda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Ichki ishlar organlari, prokuratura, milliy gvardiya va boshqa hamkor tuzilmalar bilan o'zaro hamjihatlikda olib borilayotgan ishlar natijasida huquqbuzarliklarning oldi olinishiga erishilmoqda.

Ichki ishlar organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash borasida keyingi paytda ijobiy ko'rsatkichlar qayd etilmoqda. Bu tizimning xalqqa yanada yaqinlashgani, axborot almashinuvi va jamoatchilik nazorati uchun katta imkoniyatlar yaratilganining tasdig'idir.

Vazirlik Axborot xizmati tarkibida tizim nufuzini yuksaltirishga qaratilgan yangi yo'nalish – Imijmeykerlar guruhi tashkil etildi. Bu, o'z navbatida, xodimlarning ijobiy qiyofasini shakllantirish, tizim obro'sini mustahkamlash va jamoatchilik bilan aloqalarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Yig'ilishda so'z olgan Jamoatchilik kengashi raisining o'rinbosari, general-polkovnik Zokirjon Almatov jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning bar-

vaqt oldini olishda targ'ibot ishlarini maktabdan boshlash zarurligini alohida ta'kidladi:

– Ta'lim tizimi mutasaddilari muhim bir masalani ko'rib chiqishlarini istardim: maktablarda kriminologiya asoslarini o'qitishni yo'lga qo'yish lozim. Negaki, jinoyatchilik va uning oqibatlar borasida yoshligidan bilim va tushunchaga ega bo'lgan o'g'il-qizlar o'z kelajagi haqida qayg'uradigan bo'ladi. Biz farzandlarimizga nafaqat ilm-fan alifbosini, balki «hayot alifbosi»ni – oqni qoradan ajratish ilmini ham o'rgatishimiz shart. Zero, jinoyatning oqibati bilan kurashishdan ko'ra, uning zararini bolalikdan ongga singdirish muhim.

Xulosa qilib aytganda, mazkur press-tur hamda samimiy muloqot ruhida yig'ilish ichki ishlar organlari va jamoatchilik o'rtasidagi «ishonch ko'prigi»ni yanada mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Bu kabi tashabbuslar poytaxtimiz osoyishtaligini ta'minlash yo'lidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish va xavfsiz jamiyat barpo etishda muhim poydevor bo'lib qoladi.

Abror POYONOV,
katta mutaxassis-muxbir,
katta serjant.

E'tibor

SHIFOKORLAR FAXRIYLAR HUZURIDA

IIV Tibbiyot boshqarmasi Markaziy poliklinikasi shifokor mutaxassislari ichki ishlar organlari faxriylari va xodimlari holidan muntazam xabar olish uchun tez-tez ularning xonadonlariga, davolanish maskanlariga tashrif buyuradilar.



Xuddi shunday tadbir Xotira va qadrlash kuni arafasida ham o'tkazildi. Unda Markaziy poliklinika shifokorlari urush va mehnat fronti qatnashchilari huzurida bo'ldilar. Ularning



sog'lig'i ko'zdan kechirilib, zarur tibbiy maslahatlar berildi hamda dori-darmon vositalari bilan ta'minlashda amaliy yordam ko'rsatildi.

O'z muxbirimiz.

E'tirof

QALBDAGI UCHQUNNING MASH'ALI

Kattaqo'rg'onning fayzli xonadonlaridan birida Mastona ayaning kundalik yumushlarga andarmonlikda xirgoyi qilgan lapar-u alyorlari murg'ak Uchqun qalbida san'atga ilk ishtiyoqni uyg'otdi. Biroq avlodida san'atkorlar bo'lmagani bois, kasb tanlash ostonasida biroz ikkilandi. Muddatli harbiy xizmat esa uning qalbidagi maqsadlarini elakdan o'tkazdi. U harbiy xizmatdan qaytarkan: «Bu yil San'at va madaniyat institutiga hujjat topshiraman. Agar birinchi urinishda omadim kulsa – san'atkor bo'laman. Mabodo yiqilsam, ko'proq o'qib, kelasi yili, albatta, Ichki ishlar vazirligi Akademiyasiga kiraman», – deya o'z oldiga aniq reja qo'ydi.

U o'sha kezlarda kun kelib qalbidagi bu ikki istak ajib tarzda uyg'unlashishini bilmagandi. 1993-yilda ilk urinishdayoq talabalik baxtiga muyassar bo'ldi. Oliy dargohni tamomlagach, O'zbek milliy akademik drama teatrining qaynoq ijodiy qozonida pishdi.

– Men yoshligimdan aktyor Bekzod Muhammadkarimovning ijrolariga juda havas qilganman, – deydi Uchqun Tillayev. – Buni qarangi, otaxon teatr sahnasidagi ilk ijroimni «Qirol Lir» spektaklida aynan ustozim Bekzod Muhammadkarimovga dublyor sifatida, Edmond rolidan boshlaganman.

Muqaddas san'at dargohida Yoqub Ahmedov, Turg'un Azizov, Muhammadali Abduqunduzovdek el ardog'idagi ustozlar maktabida saboq olgan yosh aktyor har bir yangi ijrosida yuksalib bordi. U «Usmon Nosir»da otashin shoir, «Jaloliddinning so'nggi kunlari»da mard sarkarda, «Gamlet»da Laert, «Kunduzsiz kechalar»da Botu kabi o'ziga xos tabiatli qahramonlar siymosini gavdalandirdi.

Aktyorlik mahorati bilan bir qatorda, ichki ish-

lar organlari tizimidagi turli bayram tadbirlarida boshlovchilik salohiyatini namoyish etib ulgurgan Uchqun Tillayev hayotida 2006-yilning yozi tub burilish yasadi. IIV Akademiyasi-



Surat arxivdan olindi.

dagi bitiruv tadbirida unga kutilmaganda sohada xizmat qilish taklifi bildirildi. IIV Ashula va raqs ansambli rahbari sifatida faoliyat boshladi. Uchqun Tillayev 2007-yilda «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist» unvoniga sazovor bo'ldi.

Yillar o'tgani sayin qahramonimizning bolalikdagi huquq-tartibot xodimi bo'lish orzusi va san'atga bo'lgan muhabbat faoliyat qadamlarida uyg'unlashib

ketdi. U jinoyatchilar bilan to'qnashmasa-da, san'atkorlardan iborat jamoasining kuy-qo'shiqlari orqali soha xodimlarining ruhiyatini ko'tarish, ularni mashaqqatli va sharafl


Joriy yilda Uchqun Tillayev Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarda, ayniqsa, «Yangi O'zbekiston» bog'idagi Navro'z tantanalarida ulug'

xizmatga ruhlantirish yo'li-da fidokorona mehnat qildi. Uning samarali xizmatlari inobatga olinib, 2014-yilda IIV Madaniyat saroyi boshlig'i etib tayinlandi. Ekranlardagi «Jinoyat jazosiz qolmaydi», «Ehtiyot bo'ling: firibgar», «Jazo», «Hudud», «Uch qahramon» kabi film va seriallarda ichki ishlar organlari xodimlarining samimiy va hayotiy obrazlarini yaratib, xalqimiz mehrini qozondi.

bobokalonimiz siymosini o'ziga xos mahorat bilan gavdalandirdi. Jaloliddin Manguberdi va Bilga hohon kabi ajdodlar rolidan so'ng, Amir Temur obrazi aktyor ijodiy kamolotining yangi cho'qqisiga aylandi. Bu ijro minglab yurtdoshlarimiz qalbida vatanparvarlik, g'urur-iftixor tuyg'ularini yana bir bor jo'sh urdirdi.

– Har bir inson uchun, u xodim bo'ladimi yoki

Unvon muborak!



O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug'i bilan IIV Madaniyat saroyi boshlig'i podpolkovnik Tillayev Uchqun To'rayevichga rag'batlantirish tariqasida navbatdagi «polkovnik» maxsus unvoni berildi.

san'atkormi, yaxshi xabar eshitish juda yoqimli, – deydi u. – Navoiy viloyatida xizmat safaridan qaytish arafasida bu xushxabarni eshitib, boshim osmonga etdi. O'sha lahzalarda oddiy serjantlikdan shu kunga qadar bosib o'tgan xizmat yillarim ko'z oldimdan o'tdi. Va ich-ichimda faxr tuydim. Bu yuksak ishonch uchun Prezidentimizga, vazirlik rahbariyatiga minnatdorchilik bildiraman. Vatanimizga, xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilishda davom etaman.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA, o'z muxbirimiz.

Kasaba uyushmasi faoliyatidan

MANZIL – ZOMIN, MAQSAD – HAMKORLIK

IIV Tarkibiy bo'linmalari xodimlari Birlashgan kasaba uyushma qo'mitasi tashabbusi bilan Jizzax viloyatining so'lim Zomin tumanida respublika miqyosidagi ikki kunlik amaliy o'quv seminari tashkil etildi.

«Yashil makon yaratish va mehnatni muhofaza qilish borasida ichki ishlar organlari tizimidagi kasaba uyushmalarining vazifalari» mavzusiga bag'ishlangan ushbu tadbirda davlat va nodavlat tashkilotlari, o'zini o'zi boshqarish organlari hamda jamoat tashkilotlarining ijtimoiy sheriklik asosidagi hamkorligini kuchaytirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Tadbirning bosh maqsadi – xodimlarning mehnatini muhofaza qilish va ichki turizm sohasida mavjud bo'lgan ba'zi kamchiliklarni bartaraf etish hamda



joylardagi kasaba uyushmalari faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat bo'ldi.

Seminarda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, O'zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari, Kasaba uyushmalari Jizzax viloyati kengashi tajribali mutaxassislari hamda IIV mas'ullarining ma'ruzalari tinglandi. Ikki kunlik mashg'ulotlar davomida kelgusida kasaba uyushmalari qo'mitalari va boshlang'ich tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish borasida fikr-mulohazalar umumlashtirilib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi. O'quv seminarining amaliy davomi sifatida, tadbir qatnashchilari yurtimizda qizg'in davom etayotgan «Yashil makon» umummilliy dasturi doirasida Zomin tumanida manzarali ko'chatlar ekish aksiyasida ham faol ishtirok etdi.

Abror POYONOV tayyorladi.

Mahalla tinch – yurt tinch

Osoyishta hayot poydevori

Navoiy shahridagi «Tinchlik» mahallasida aholi osoyishtaligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida kompleks profilaktik ishlar tizimli ravishda amalga oshirilyapti. Mahalla yettiligi va jamoatchilik vakillari hamjihatlikda faoliyat yuritib, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, yoshlarni turli salbiy ta'sirlardan asrash va sog'lom ijtimoiy muhitni yaratishga alohida e'tibor qaratmoqda. Zamonaviy tahdidlar – kiberjinoyatchilik, internet orqali tarqalayotgan yot g'oyalar hamda giyohvandlik illatiga qarshi kurashishda ko'pni ko'rgan tajribali fuqarolar ham jonbozlik ko'rsatishmoqda.

– Biz uchun eng muhimi aholining muammolarini o'z vaqtida hal etish. Shu bois mahallada «xonadonbay» ishlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Natijada nafaqat ijtimoiy, balki ma'naviy muammolarni ham aniqlab, bartaraf etish choralarini ko'ryapmiz. Yoshlar bilan ishlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham ustuvor vazifalarimizdan biri, – deydi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Sanobar Usanova.

Hududda ikki yarim ming nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Targ'ibotlar davomida bandlik, ijtimoiy himoya masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ko'chalarga yoritish chiroqlari va kuzatuv kameralari o'rnatildi.



– Oilalardagi muhit sog'lom bo'lsa, jamiyat ham barqaror bo'ladi. Biz, ayniqsa, yosh kelinlar va qizlar bilan muntazam suh-

batlar o'tkazamiz. Internet tarmoqlaridan to'g'ri foydalanish, turli aldov va kiberfiribgarliklarga uchramaslik bo'yicha ogoh-

lantirish ishlarini kuchaytirganmiz. Shuningdek, giyohvandlikning salbiy oqibatlarini ayollarga tushuntirish orqali butun oilaga

ta'sir ko'rsatishga harakat qilamiz, – deydi xotin qizlar faoli Dilorom Mamatova.

– Bugun faqat an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmayapmiz. Ijtimoiy tarmoqlar orqali aholiga huquqiy tushunchalar berish, ogohlantiruvchi materiallar tarqatish yo'lga qo'yilgan. Yoshlar o'rtasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning zarari haqida profilaktik uchrashuvlar, davra suhbatlari, turli musobaqalar, ko'rik-tanlovlar o'tkazaymiz, – deydi profilaktika inspektori, leytenant Ilg'orjon Hamdamov

Ta'kidlash joizki, «Tinchlik» mahallasida olib borilayotgan bunday keng qamrovli profilaktik ishlar xavfsiz hayot poydevori vazifasini o'tayapti. Bu huquqbuzarliklarni kamaytirishga, aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, pirovard natijada esa hududda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

«KADAN» «YASHIL»GA O'TDI

Kattaqo'rg'on tumanida 69 ta mahalla mavjud bo'lib, joriy yilning birinchi chorak yakuniga ko'ra 3 tasi «qizil», 19 tasi «sariq», 46 tasi «yashil» toifada. «Kadan» mahallasi hozirda «sariq» toifadan «yashil»ga o'tdi.



Mahalla aholisi o'rtasida o'zaro hurmat, hamjihatlik va bir-birini qo'llab-quvvatlash muhiti shakllangan bo'lsa, bunday mahallada tinchlik va tartib hukm suradi, barqarorlik ta'minlanadi. Shu bois, mahalla yettiligi jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratyapmiz, – deydi mahalla raisi O'ktam Hamidov. – Mahalla yettiligi tomonidan «xonadonbay» o'rganishlar jarayonida har bir oilaning ijtimoiy

ahvoli, muammo va ehtiyojlari aniqlanmoqda va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq choralar ko'ryapmiz.

Darhaqiqat, mahallada har bir muammo jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinib, yechim topmoqda. Bu esa aholi o'rtasida ishonch va hamjihatlikni yanada mustahkamlamoqda. Natijada huquqbuzarliklar kamayib, tinchlik va osoyishtalik muhiti barqarorlashmoqda.

«Kadan» MFY profilaktika inspektori, kapitan Orif Kidirovning aytishicha mahallada xavfsizlikni ta'minlashga kompleks yondashildi. Ishlar infratuzilma, profilaktika, bandlik va jamoatchilik hamkorligi tamoyili asosida uzviy bog'langan holda tashkil etildi. Natijada hududda tinchlik, ishonch, hamjihatlik va faollik muhiti shakllandi. Ko'chalarga zamonaviy yoritish chiroqlari, videokuzatuv kameralari o'rnatilgani mahallamizning yashil toifaga o'tishida muhim omil bo'ldi.

Mahallada «fuqaro – jamiyat – davlat» tamoyili asosida ochiq muloqot muhiti ham shakllangan. Bugun har bir fuqaro o'zini nafaqat xavfsiz, balki bu xavfsizlikni ta'minlashda faol ishtirokchi va mas'ul sifatida ham his etmoqda.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

Bilib oling

Tazyiq va zo'rvonlikni targ'ib qiluvchi mahsulotlarni tayyorlash va tarqatish taqiqlanadi



Qonunchilikka ko'ra, tazyiq, zo'rvonlik yoki shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O'zbekiston hududiga olib kirish, uni reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'ida tarqatish:

– mahsulotni musodara qilib, fuqarolarga – BHMning 50 baravaridan 400 baravarigacha;

– mansabdor shaxslarga – 100 baravaridan 450 baravarigacha jarima solishga sabab bo'lishi belgilangan.

Shuningdek, ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin shunday harakatlarni sodir etganlik uchun jinoyi javobgarlik ham belgilangan.

Inson qadri ulug'

MANGUGA MUHURLANGAN TAQDIRLAR



Sharafli va mashaqqatli soha – ichki ishlar organlarida xizmat qilib, hamkasblari, qolaversa, do'stlari orasida hurmat va e'tibor topgan, e'tirofqa muvassar bo'lgan insonlar juda ko'p. Ana shunday tabarruk insonlar qatorida marhum general-mayorlar – G'ofur Rahimov va Ubaydulla Tojixonovlarning o'rni alohida edi.

Oddiy xodimlikdan respublika Ichki ishlar vazirining birinchi o'rinbosari lavozimigacha bo'lgan sharafli va mashaqqatli xizmat yo'lini bosib o'tgan marhum general-mayor G'ofur Rahimovni bilgan kishi borki, samimiy, dilkash, ochiq yuz, hazil-mutoyibaga boy, ajoyib inson ekanligini hamon eslaydi.

IIV Akademiyasiga uzoq yillar rahbarlik qilgan marhum general-mayor Ubaydulla Tojixonovni esa ko'pchilik talabchan, qattiqqo'l rahbar deb bilgan bo'lsa, uni yaqindan taniganlar bir dam bo'lsa-da, tinmaydigan, qo'lidan kelgan yaxshiligini hech kimdan hech qachon ayamagan fidoyi inson sifatida xotirlaydilar.

Umr o'tkinchi, hayot abadiy. Bu ikki ustozdan yaxshi xotiralar qoldi. Ular hamon qalbimizda, yuragimizda.



Суратлар архивдан олинди.

Mustaqillik zafarnomasi

SARIOSIYO AEROPORTI:

YANGI PARVOZLAR, YANGI UFQLAR

Surxondaryo viloyatining chekka hududlaridan biri bo'lgan Sariosiyo tumanida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar aholi turmush tarzini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarmoqda. Xususan, transport infratuzilmasidagi ijobiy o'zgarishlar nafaqat qulaylik, balki hudud rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylandi.

1976-yilda foydalanishga topshirilgan Sariosiyo aeroporti uzoq yillar davomida aholiga xizmat qildi. Biroq 2005-yilga kelib, u fuqaro aviatsiyasi uchun yopildi. Oradan qariyb yigirma yil o'tib, davlatimiz rahbarining tashabbusi va topshiriqlari asosida ushbu havo bandargohi tubdan qayta ta'mirlanib, zamonaviy talablar darajasida qayta ishga tushirildi.

Bugungi kunda aeroport haftaning dushanba, chorshanba, juma va yakshanba kunlari muntazam reyslarni amalga oshirmoqda. «Toshkent – Sariosiyo» yo'nalishi bo'yicha yo'lga qo'yilgan aviaqatnovlar aholi uchun beqiyos qulaylik yaratib, ilgari soatlab davom etgan mashaqqatli yo'l endilikda bir soatdan ziyod vaqt ichida bosib o'tish imkonini bermoqda.



Albatta, strategik ahamiyatga ega bo'lgan har qanday transport obyektida bo'lgani kabi, bu yerda ham xavfsizlik masalasiga birinchi darajali vazifa sifatida qaraladi. Bu borada Surxondaryo viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi Sariosiyo aeroportida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi xodimlari yuksak mas'uliyat bilan xizmat qilmoqda.

– Muntazam reyslar belgilangan kunlarda xodimlarimiz navbatchilik asosida faoliyat ko'rsatadi, – deydi bo'linma huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi katta inspektori, mayor Mansur Toshboboyev. – Fuqarolarni kutib olish, ro'yxatdan o'tkazish va samolyotga chiqish jarayonlari to'liq nazorat ostida bo'ladi. Har bir yo'lovchining xavfsizligini ta'minlash bizning asosiy maqsadimizdir.

Shuningdek, aeroport hududida jamoat tartibini saqlash, shubhali holatlarning oldini olish va yo'lovchilar uchun xotirjam muhit yaratish maqsadida profilaktik tadbirlar olib borilyapti. Zamonaviy kuzatuv vositalari va tajribali xodimlarning sergakligi jarayonning samaradorligini kafolatlamoqda.

Muxtasar aytganda, Sariosiyo aeroportining qayta ishga tushirilishi nafaqat transport tizimidagi yutuq, balki butun hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun yangi ufqlarni ochdi. Endilikda bu maskan taraqqiyot va farovonlikka eltuvchi muhim parvozlarni nuqtasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

Biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur.

Shavkat MIRZIYOYEV

MA'NAVIYAT OILADAN BOSHLANADI

(15-may – Xalqaro oila kuni)

Inson tug'ilgan kundan muqaddas maskan – oila bag'rida tarbiya topa boshlaydi. O'zbek xalqining ko'p asrlik qadriyatlari zahirida ham oila muqaddas dargoh, ma'naviyat o'chog'i va tarbiya maskani sifatida qadrlanadi. Bunda ota-onaning mehri, har bir so'zi, o'zaro munosabati, hatto oddiy kundalik odatlarini ham ma'naviyat uchqunlari desak, aslo mubolag'a emas.

Oilada hamisha o'zaro hurmat va mehr ustuvor bo'lishi kerak. Ayniqsa, kattalar kichiklarga mehribon bo'lishi, kichiklar esa kattalarga hurmat ko'rsatishi, onalar muloyimlik, sabr-toqat bilan qalblarga yaxshilik urug'ini sepishi, ota esa halollik, adolat va mehnatsevarlik singari insoniy fazilatlarini singdirishi lozim.

Xo'sh, ma'naviyatli inson qanday bo'ladi o'zi? U doimo o'qish, o'rganish, o'z dunyoqarashini kengaytirish harakatida bo'ladi. Adolatli bo'lishga intiladi, muhtojlarga mehr-muruvvat bilan yordam qo'lini cho'zadi. Unga loqaydlik begonadir. Bunday inson jamiyatda ham hurmat qozonadi. Bu fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllanadi.

Afsuski, bugungi axborot texnologiyalari shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan zamonda insoniyatga, ayniqsa, yoshlarga nisbatan turli tashqi yot ta'sirlar juda ko'p. Xususan, internet, ijtimoiy tarmoqlardagi, turli zararli axborotlar oqimi ularning fikriga har jihatdan salbiy ta'sir o'tkazayotgani hech birimizga sir emas. Bunday sharoitda esa oilaning o'rni yanada muhimligi ayni haqiqatdir.

Shu o'rinda ota-onaning shaxsiy namunasi eng kuchli tarbiya vositasi ekanligini ta'kidlash jo'izdir. Ular o'z so'ziga amal qilsa, halol va tarbiyali bo'lsa, farzand ham shunday bo'lishga intiladi. Aks holda, faqat gap bilan berilgan tarbiya samara bermaydi. Shunday ekan, har bir ota-ona, avvalo, o'zini tarbiyalashi, farzandiga yaxshi namuna bo'lishi kerak.

Aytganча, oilada faqat axloqiy tarbiya emas, balki ma'rifiy tarbiya ham muhim. Kitob o'qishga bo'lgan muhabbat, bilimga intilish, yangiliklarni o'rganish kabi fazilat-

lar ham aynan ana shu maskanda shakllanadi. Ota-ona farzandiga kitob o'qib bersa yoki uni kitob o'qishga undasa, bu bolaning kelajagiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi, albatta.

So'nggi yillarda mamlakatimizda oila jamiyatning eng muhim bo'g'ini sifatida davlatimiz tomonidan muhofaza qilinyapti, uni mustahkamlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Bosh qomusimizning XIV bobi «Oila, bolalar va yoshlar» deb nomlanadi. Uning 76–80-moddalarida oila munosabatlariga oid ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy jihatlar belgilab qo'yilgan.

Xususan, 76-moddada, «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi», deb belgilab qo'yilgan.

Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda oilani mustahkamlashga, undagi munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berishga hamda barcha a'zolarining mas'ulligi asosida qaror toptirishga xizmat qiladi. Qonunchilikka ko'ra, biror-bir shaxsning oila

masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu huquqiy hujjat jamiyat va oilada sog'lom hamda barqaror ijtimoiy ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko'maklashishni tashkil etish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash kabi qator muhim vazifalarni amalga oshirishda huquqiy asos bo'ladi.

Ushbu qoidalarning hayotga tatbiq etilishida esa mahalla yettligi ko'prik bo'lib xizmat qilmoqda. Xususan, ilgari oilaviy muammo va nizolar sudga yetib borganda ma'lum bo'lardi. Hozir mahallalardagi xotin-qizlar faoli ayollarning ijtimoiy ahvolini, ijtimoiy xodim muhtoj oilalarning ehtiyojlarini, profilaktika inspektori oiladagi muhitni xonadonbay o'rganmoqda. Bu o'rganishlar ijobiy ma'noda o'zgarishlar asosiga aylanib ulgurdi. Jumladan, yuz minglab ayollarning kasb-hunarga o'qitilishi, ularga imtiyozli kreditlar ajratilishi va bandligi ta'minlanishi orqali oilalarning daromad manbayini kengaymoqda. Bu esa o'z navbatida, moliyaviy qiyinchiliklar ortidan kelib chiqadigan oilaviy nizolarning oldini olishda muhim omil bo'lmoqda. Zero, oila mustahkamligi uning iqtisodiy farovonligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Yurtimizda oila institutini mustahkamlash yo'lidagi islohotlar

shunchaki kampaniyabozlik emas, bu millat genofondini asrash va kelajak sohiblarini sog'lom muhitda kamolga yetkazish yo'lidagi muhim harakatdir. Bugungi o'zbek oilasi – zamonaviy bilim va milliy tarbiya uyg'unlashgan maskandir. Quvonarlisi, davlat tomonidan berilayotgan e'tibor va imtiyozlar oilalarning mustahkamligini oshirmoqda. Zero, oila qo'rg'oni mustahkam bo'lsa, insonlar baxtli, bunday jamiyat esa farovon va obod bo'ladi. Oilada berilgan tarbiya har bir insonning butun hayotida yo'l ko'rsatishini unutmastigimiz kerak. Shuning uchun har birimiz o'z oilamizda mehr-oqibat, hurmat va ezgulikka yo'g'rilgan qadriyatlarni saqlashimiz darkor. Chunki bugungi tarbiya – ertangi kelajak demakdir.

Shunday ekan, har bir oila ma'naviyat maskaniga aylanishi lozim. Zero, ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat ta'kidlaganidek, «**Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muntazam bo'ladi.**»

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.



Ma'naviyat va ma'rifat darsini videomaterial tarzida ko'rish uchun QR-koddan foydalaning.



Qoraqalpoq tilidagi matn.



Rus tilidagi matn.



www.youtube.com/@Postda_IIV



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda.uz

Hududlarda

«RAHMAT AYTISHDAN CHARCHAMAYMAN»

Arnasoy tumani IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori, mayor Safarboy O'ralov tumandagi 20-umumta'lim maktabi sari yo'l oldi. Bugun ushbu ta'lim maskanida viloyat miqyosidagi muhim seminar bo'lib o'tadi. Unda Jizzax viloyatining barcha tumanlarida, jumladan, chekka hududlardagi maktablarda faoliyat yuritayotgan xorijlik mutaxassislar va mahalliy pedagoglar tajriba almashish uchun jam bo'ladi. Mayor jamoat tartibini saqlash va seminarining osoyishta o'tishini ta'minlashga mas'ul etib biriktirilgan.



Seminarda viloyatdagi maktablarda ta'lim sifatini oshirish, chet tillarni o'qitishni xalqaro andozalarga moslashtirish maqsadida jalb etilgan 35 nafar xorijlik o'qituvchi ishtirok etdi. Ular o'zbekistonlik hamkasblari bilan til o'rgatishning ilg'or usullari, zamonaviy pedagogik

texnologiyalar va sifatli ta'lim berishning innovatsion yo'llari haqida fikr almashdilar.

Tumandagi 8-maktabda faoliyat yuritayotgan eronlik o'qituvchi Mahbube Baxshayesh (Mahboobeh Bakhshayesh) profilaktika katta inspektoriga jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi xizma-

ti uchun alohida minnatdorlik bildirdi:

– Tinchlik – eng ulug' boyluk. Bir necha oydirki, yurtimizda bolalarga ingliz tilidan saboq berib kelyapman. O'zbekistondagi osuda hayotga havasim keladi. Vatanimdagi yaqinlarim bilan qo'ng'iroqlashganimda, ularga jannatmonand yurt-da emin-erkin ishlayotganimni aytaman. Shu bois bu ulug' ne'matni qadrlash, uning posbonlariga takror-takror rahmat aytishdan charchamayman.

Darhaqiqat, birgina ushbu maktab joylashgan G'afur G'ulom nomidagi mahallada nafaqat profilaktika inspektori, balki mahalla yetiligi a'zolari hamda jamoatchilik nazorati tufayli hudud xavfsizligi namunali darajada ta'minlanmoqda. Hududga 60 ga yaqin kuzatuv kameralari o'rnatilgani, jamoatchilik guruhlarining faolligi, tun-u kun olib borilayotgan profilaktik tadbirlar natijasida mahallada yil boshidan buyon birorta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Ming nafardan ziyod yoshlarni sport to'garaklariga qamrab olishda sport maktabining aynan shu mahalla hududida joylashgani ham katta imkoniyat yaratmoqda.

Muqaddas SAPAROVA,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.

Yoshlar – yurt kelajagi

TARBIYA TAQANI TO'G'RILAYDI

Qumqo'rg'on tumanida ichki ishlar organlari hamda ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishi yoshlar bilan ishlash tizimini yaxshilamoqda. Hamkorlik doirasida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni turli salbiy ta'sirlardan asrash, muammoli holatlarni erta aniqlash va bartaraf etish imkoniyatlari kengaymoqda.

Tuman IIB Voyaga yetmaganlar bo'yicha katta inspektor-psixologi, katta leytenant Sirojiddin Quدراتov hududdagi voyaga yetmaganlar bilan individual ishlash, ularning muammolarini aniqlash va bartaraf etishda «oila, maktab va mahalla» tamoyili asosida ish olib bormoqda.

O'tgan chorakda 5 nafar o'spirinning ota-onasi tomonidan qonuniy vasiy va homiy tayinlanmasdan qarovsiz va nazoratsiz qoldirilgani sababli ularning sababsiz darslarga qatnashmasdan bemaqsad yurganligi inspektor-psixolog tomonidan aniqlandi. Shuningdek, Angor va

Muzrabot tumanlaridan kelgan 2 nafar voyaga yetmagan shaxs nazoratsiz qolgani bois viloyat Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirildi.

Bundan tashqari inspektor-psixolog S.Quدراتov tashabbusi bilan

maktablarda kitobxonlik tanlovlari ham o'tkazilib kelinmoqda. Ushbu tanlov tufayli ishtirokchilar o'qigan asarlari yuzasidan o'zaro fikr almashib, tahlil qilish va xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bu esa ularning nutq madaniyati va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlamoqda.

Inspektor-psixologning tashabbusi bilan tumanda 20 dan ortik maktablar o'rtasida o'tkazilgan voleybol musobaqasi esa yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, jismoniy sog'lomlikni mustahkamlash va jamoaviylik ruhini shakllantirishda asqatmoqda. Ayniqsa, sport orqali yoshlar o'rtasida do'stlik, o'zaro hurmat va sog'lom raqobat muhiti kuchayotgani quvonarli.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



Ayol va jamiyat

Sayyora maktabda o'qib yurgan kezlari farmatsevt bo'lishni orzu qilardi. Biroq 1999-yilda akasi Polat IIV Akademiyasini bitirib, leytenant libosida uyga kirib kelganida, uning maqsadi butunlay o'zgardi. Endi huquq-tartibot posboni bo'lishga qat'iy ahd qildi.

FIDOYLILIK HAMDA
IJOD ESHLIGIDA

Sayyora Qulimbetova IIV Akademiyasini tugallab, 2019-yildan Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasida xizmat qilyapti. Ayni paytda HPB muhim topshiriqlar bo'yicha inspektori lavozimida xizmat qilmoqda. Uning akalari G'ayrat, Bahadir, Samat ham ichki ishlar organlarida xizmat qiladi.

Joriy yilning o'tgan davri davomida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari tomonidan jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va ularning oldini olish bo'yicha qator tizimli ishlar amalga oshirilgan. Buning natijasida xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 57,1 foizga kamaygan. Bundan tashqari, «Turmush», «Xavfsiz oila», «Firibgarlikka yo'l yo'q» kabi profilaktik tadbirlar uyushtirildi. Mazkur tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda S. Qulimbetovaning munosib hissasi bor ekanligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

– Sayyora o'z kasbinang ustasi, faoliyatida erishgan yutuqlari bilan hamkasblariga ibrat bo'lib kelyapti. Bugungi kunda ko'plab shogirdlariga sohaning sir-asrorlarini o'rgatmoqda. Uning ijodkorlikka bo'lgan ishtiyoqi ham tahsinga loyiq. Tizimda amalga oshirilayotgan islohotlar, hamkasblarining zaxmatli xizmati haqida gazetalarda maqolalari tez-tez chop etilib turiladi, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV HPB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik X. Reymkulova.

Lavhamiz qahramonining fidoyilarcha xizmati o'zining munosib bahosini topib kelmoqda. Xususan, u joriy yilda Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida unga muddatidan oldin «podpolkovnik» maxsus unvoni berildi.

Sayyora Qulimbetova nafaqat namunali xodima, balki mehribon ona va oqila rafiqa hamdir. Turmush o'rtog'i Raxim Satarov Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida xizmat qiladi. Qirg'iz yigiti va qoraqalpoq qizining ahil oilasi yurtimizdagi millatlar totuvligining chinakam timsolidir. Bugungi kunda ular ikki nafar farzandni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalab voyaga yetkazishmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Qonunchilikdagi yangiliklar

VAKOLAT MAS'ULIYAT DEMAKDIR

Joriy yilning 10-may sanasidan boshlab O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kuchga kiradi.

Qonunchilikdagi ushbu yangiliklar profilaktika inspektorlari hamda patrul-post xizmati xodimlarining vakolatlarini kengaytirish, shuningdek, ularning funksiyalarini aniq chegaralashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 248-moddasiga muvofiq, profilaktika inspektorlari ayrim toifadagi ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'ladi.

Jumladan, ular bundan buyon:

- «Epidemiyalarga qarshi kurashish qoidalarini buzish»;
- «Jamoat joylarida tamaki mahsulotlarini iste'mol qilish»;
- «Sanoat, maishiy va boshqa chiqindilarni yig'ish, tashish, joylashtirish, zararsizlantirish, saqlash, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va realizatsiya qilishda tabiatni muhofaza qilish talablarini buzish»;
- «Hayvonlarni saqlash qoidalarini buzish»;
- «Hayvonlarga nisbatan shafqatsiz munosabat» (1-qism);
- «Temiryo'l transportida harakat xavfsizligi qoidalarini buzish»;
- «Temiryo'l transporti hamda metro-politendan foydalanish qoidalarini buzish»;
- «Transport vositalari haydovchilari tomonidan to'xtash yoki to'xtab turish qoidalarini buzish»;
- «Piyodalar va boshqa yo'l harakati qatnashchilari tomonidan yo'l harakati qoidalarini buzish»;

● «Jamoat joylarida alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish» kabi holatlar aniqlanganda, aybdorlarga nisbatan huquqiy chora ko'rish vakolatiga ega bo'lishdi.

Shuningdek, mazkur o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra patrul-post xizmati xodimlari ham quyidagi ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlash va tegishli bayonnomalarni tuzish huquqiga ega bo'lishdi.

Jumladan, ularning vakolatlariga:

- «Temiryo'l transportida harakat xavfsizligi qoidalarini buzish»;
- «Temiryo'l transporti hamda metro-politendan foydalanish qoidalarini buzish»;
- «Transport vositalari haydovchilari tomonidan to'xtash yoki to'xtab turish qoidalarini buzish»;
- «Piyodalar va boshqa yo'l harakati qatnashchilari tomonidan yo'l harakati qoidalarini buzish»;
- «Jamoat joylarida alkogol mahsulotlarini iste'mol qilish» singari huquqbuzarliklar bo'yicha patrul-post xizmati xodimlari tomonidan tuzilgan materiallar vakolatli rahbarlarga ko'rib chiqish va ma'muriy jazo qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish uchun yuboriladi.

Aytaylik, bundan keyin mahalla hududidan harakatlanayotgan temiryo'l transportida harakat xavfsizligi qoidalarini buzganlarga nisbatan profilaktika inspektorlari va PPX xodimlari huquqiy baho berib, ularga nisbatan qonuniy chora ko'radi. Masalan, temiryo'l relslariga turli jism qo'yganlar, o'tib ketayotgan poyezdlarga tosh otib ularning

oynasini sindirganlar yoki yo'llarga texnik shikast yetkazganlarga nisbatan chora ko'rishadi. Ilgari bunday huquqbuzarliklar uchun Transportdagi IIB xodimlari huquqiy baho berish uchun bayonnoma tuzishar edi.

Shuningdek, ilgari mahalla hududida harakat xavfsizligi qoidalariga rioya qilmasdan harakatlanayotgan avtotransport vositalari haydovchilariga nisbatan tuzilgan ma'muriy bayonnomalar YPX xodimlari bilan birgalikda, ular ishtirokida rasmiylashtirilgan bo'lsa, bundan buyon profilaktika inspektorlari va PPX xodimlari o'zlari mustaqil holda bayonnoma rasmiylashtirish huquqiga ega bo'lishdi.

Mazkur Kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, ya'ni ularni isloh qilishning ahamiyati shundaki, ma'muriy ish yuritish subyektlari o'rtasida vakolatlar aniq taqsimlandi.

Endi kim huquqbuzarlikni aniqlaydi, kim bayonnoma tuzadi, kim ishni ko'rib chiqadi, kim ma'muriy jazo tayinlash bo'yicha qaror qabul qiladi, bularning barchasi qonunchilik darajasida belgilab qo'yildi. Bu esa funksiyalar takrorlanishini bartaraf etish va huquqni qo'llash amaliyoti shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Vakolatlarning kengayishi esa mas'uliyat oshishini anglatadi.

Mazkur yangiliklar O'zbekiston Respublikasining 2026-yil 17-apreldagi «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-1132-son qonuni bilan tasdiqlangan.

Bekmurat BEKIMBETOV,
IIV JXD Axborot xizmati
katta mutaxassisi, mayor.

Устозларни хотирлаб

ТОШКЕНТЛИК «АНИСКИН»ЛАР

Ха, янглишмадингиз. Бу ерда гап ўтган асрнинг 70-йилларида телевидениеда намоиш этилган оддий участка инспектори Фёдор Анискин ҳақида кетмоқда. Бу фильмни кўпчилигимиз севиб томоша қилганмиз. Актёр Михаил Жаров ижро этган ушбу фильм қаҳрамони ўзининг самимийлиги, қишлоқ аҳлининг дарду қувончига шерик бўлиши ва энг муҳими, хизмат ҳудудида содир бўлган жиноятларни тез фурсатда фош этиши билан мухлислар қалбидан жой олган.

Мен Анискинлар ҳақидаги фильмларни томоша қилганимда, кўз олдимда ўзбек милицияси сафида хизмат қилган, характери, иш услуби, ҳатто гавдаси, ташқи кўриниши ҳам Фёдор Анискинга ўхшаб кетадиган икки нафар участка инспектори гавдаланади.

Улардан бири – ўттиз беш йил давомида Тошкент телеминораддан то Ҳалқа автотомобиль йўлигача (маълум бир қисми Тошкент тумани ҳудудидан ўтган) бўлган ҳудудда, шунингдек, «Тутзор»,

«Сабзавот» ва «Дархон» маҳаллаларида участка ноziри бўлиб хизмат қилган капитан Зикир Зияевдир.

Тошкент тумани Ички ишлар бўлими ходимлари сифатида биз Зикир аканинг бой иш тажрибаси ва касбий маҳоратидан кўп нарсаларни ўрганганмиз.

...Куз фаслининг охирида туман ҳудудида мол ўғрилари «жонланиб» қолди. Ҳар куни тумanning қайсидир манзилдан от ва қорамоллар йўқола бошлади. Раҳбарият томонидан махсус гуруҳ ташкил этилгач, барчамиз «Дархон» маҳалласидаги участка ноziри хонасига йиғилдик.

Бир маҳал Зикир ака худди чорвадор қиёфасида, эски кийимларни кийиб хонага кириб келди. Сўнг бизга қарата шундай деди: – Сизлар бозорга кирмай туринглар, мен ўзим ичкарини кузатиб, хабар оламан...

Мол бозорига кириб кетган Зикир ака орадан икки соат ўтиб, бир йигит билан чиқиб келди. Кейин улар «Жигули» машинасига



ўтириб, Чирчиқ шаҳри томон йўл олишди.

Кейин маълум бўлишича, ўғри йигитлардан бири уида сотиладиган бир нечта моли борлигини, лекин уларни бозорга олиб келиш имкони йўқлигини айтган ва бизнинг «харидоримиз» билан савдолашган экан...

Тошкент туманида хизмат қилган, ўз касбига са-

доқати билан Анискинга қиёсланадиган яна бир ҳамкасбимиз – подполковник Исмоил Файзиевдир.

Тумандаги «Фишткўприк» маҳалласида таваллуд топган бу инсон меҳнат фаолиятини оддий киночиликдан бошлаган. Қизиғи шундаки, аҳолига детектив жанридаги фильмларни намоиш этиш жараёнида унда ички ишлар

идоралари ходимларининг шарафли касбига ҳавас уйғонади ва милиционер бўлишга қарор қилади.

Узоқ йиллар участка ноziри бўлиб хизмат қилган Исмоил аканинг ҳаёт йўли, хизмат фаолияти ҳам ҳар бир ёш ходим учун ҳақиқий ибрат мактабидир. Унинг касбий маҳорати, фаолияти билан боғлиқ қизиқарли воқеалар ҳақида соатлаб сўзлаш, кўплаб мисоллар келтириш мумкин.

Мақоламизда Тошкент тумани Ички ишлар бўлимида халқимиз тинчлиги йўлида садоқат билан хизмат қилган икки нафар заҳматкаш участка ноziри – марҳум устозларимиз ҳақида қисқа сўз юритдик. Ҳеч муболағасиз айтиш мумкинки, кўп йиллик фаолияти давомида ибратли воқеалар ва ҳаётини сабоқлари шу қадар бисёрки, уларнинг ҳар бири алоҳида бир фильмга мавзу бўлишга арзийди.

Раҳимжон ШОДИЕВ,
истеъфодаги
капитан, Ўзбекистон
Журналистлар уюшмаси
аъзоси.

Тошкент вилояти.



QO'SHSAHIFADA —



«Inson qadri uchun, jamiyat xavfsizligi uchun!» Sirdaryo viloyati IIB va uning hududiy organlari faoliyatiga mazkur shior asos qilib olingan. Shu maqsadda «mahallabay», «xonadonbay» ishlar tashkil qilingan. «Xavfsiz shahar», «Xavfsiz mahalla» loyihalari amalga oshirilmogda. Joylarda Face ID tizimini qo'llay oladigan kuzatuv tizimlari, tezkor ma'lumotlarni tahlil qiluvchi raqamli markazlar tashkil qilindi. Gazetamizning qo'shsahifasida sirdaryolik huquq-tartibot posbonlarining hududda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlash borasidagi faoliyati haqida hikoya qilinadi.

PROFILAKTIKANING KO'LAMI KENG

SAMARALI VOSITA

Vatan himoyasi uchun har bir yigit doim tayyor turishi zarur. Buning uchun esa jismonan baquvvat, irodali, qat'iyatli va sadoqatli bo'lish bilan birga harbiy qurollarni ham yaxshi bilish talab qilinadi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning eng samarali vositasidir. Boisi

INSPEKTORGA TAYANCH

Sirdaryo viloyati IIB HPB mas'ul xodimlari bir necha profilaktika inspektorlarining xizmat uylarida bo'lib, ularning turmush sharoitini o'rganishdi. Maqsad ularning ijtimoiy muammolarini bartaraf etish yo'li bilan xizmat samaradorligini yanada oshirish edi.

Hayotda qachon muammo bo'lmagan, har doim bor. Tumanning olis mahallalaridan birida xizmat qiladigan yosh leytenantning turmush o'rtog'i ishsiz ekan. Agar u ham ish bilan ta'minlan-sa, ro'zg'orga yanada baraka kiradi. Masala shu yerning o'zida hal qilindi. U yaqinda barpo etilgan maktabga cha ta'lim tashkilotiga tarbiyachi-enaga sifatida ishga joylashtirildi.

Profilaktika inspektorlari faoliyati samaradorligini oshirishning yana bir yo'li ularni moddiy texnika vositalari bilan ta'minlash darajasini oshirish. Shuni e'tiborga olgan holda yaqinda tuman IIB tomonidan barcha profilaktika inspektorlari yangi kompyuterlar, xizmat sumkalari



Tuman IIB Probatsiya bo'linmasi inspektori, katta leytenant Shokir Butunboyev, Sirdaryo viloyati IIB Probatsiya xizmati inspektori, katta leytenant Muqaddas O'rolova.

o'z Vatanga sadoqatli shaxs jinoyatga qo'l urmaydi.

– IIV rahbariyati tomonidan menga tumanimiz yoshlarini yurtimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga hissa qo'shish vazifasi topshirilgan edi, – deydi tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Hasan Hazratov. – Ushbu topshiriq ijrosi doirasida tumandagi ko'plab yoshlar o'rtasida «AK-74» avtomatini qismlarga ajratish, yig'ish musobaqasini tashkil etdim. Bilasizmi, yoshlarimizning ushbu jarayondagi jo'shqinligini ko'rib nihoyatda ta'sirlandim. O'ylaymanki, ushbu tadbir ham tarbiyaviy ta'sirga ega bo'ldi.

va kodekslar to'plami bilan ta'minlandi. Ularning xizmat xonalaridagi eskirgan jihozlar yangilandi.

KO'ZLARIDA HAYAJON

Tuman IIB M va PBda aholiga tegishli yo'nalishlarda sifatli xizmat ko'rsatish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Bu yerga har kuni o'nlab yoshlar shaxsni tasdiqlovchi hujjatni rasmiylashtirishga kelishadi. Ularning ko'zlarida hayajon sezilib turadi.

– Albatta, umrida ilk bor shu Vatanning fuqarosi ekanligini anglatuvchi hujjatni qo'lga olayotgan har bir yigit-qiz hayajonlanadi-da. Shuning uchun yoshlarga ID-karta, ya'ni O'zbekiston Respublikasi



Tuman IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limi safdor xodimi, kichik serjant Sardor Bo'riyev, safdor haydovchi Jamshid Mamadaliyev bilan tezkor chaqiruv tafsilotlarini aniqlamoqda.

shaxs guvohnomasini topshirish marosimi tantanali tus oladi, – deydi tuman IIB M va PB katta inspektori, mayor Farhod Abduxolliqov.

Tumanda tunlar charog'on, kunlar yanada fayzli bo'lishi, odamlar tinch-osoyshta hayot kechirishi yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatidan bunga o'xshash misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

VOLEYBOL VA BEZORILIK

Ayni kunlarda tuman IIB tomonidan mahallalarda voleybol bo'yicha musobaqalar tashkil etilib, unga mingga yaqin yoshlar jalb qilindi. Jumladan, «Oqibat» mahallasida tashkil etilgan ana shunday musobaqada o'nlab yoshlar mahoratini namoyish etdi.

G'oliblar munosib taqdirlandi. Voleybol bilan huquqbuzarliklarga qarshi kurashning qanday aloqasi bor?, deyishingiz mumkin. Javobi oddiy – sport kishini sog'lom turmush tarziga yo'naltiradi.

– Masalaning psixologik jihati ham bor, – deydi tuman IIB HPB VEMB katta inspektor-psixologi, katta leytenant O'ktam Ma'rupov. – Yoshlarda ruhan zavq olishga doimiy ehtiyoj bor. Agar ushbu ehtiyoj ijobiy jarayonlar orqali qoplanmasa, salbiy holatlarga qarab buriladi. Futbol, voleybol, tennis, kurash kabi sport turlari ana shunday zavq bag'ishlaydi. Qolaversa, yoshlarda sarflanishi lozim bo'lgan energiya ko'p bo'ladi. Uni foydali tomonga yo'naltirmasa, ular o'zini ko'rsatish uchun bezorilik, o'g'rilik kabi jinoyatlarga qo'l urishi mumkin.



Tuman IIB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik Hasan Hazratov va tuman IIB M va PB katta inspektori, kapitan Ulug'bek Matxalikov ichki ishlar faxriysi, iste'fodagi polkovnik Ergash ota Abduqodirov ziyoratida.

SIRDARYO VILOYATI

Izdoshlar

«OTAMGA HAVAS QILDIM»

Ichki ishlar organlari faxriysi Toir aka Xolmamatovning to'rt o'g'li bor. Ularning ikki nafari ota izidan ketib, uning kasbini davom ettiryapti.



T. Xolmamatov xizmatni Sirdaryo viloyati IIB Axloq tuzatish ishlari guruhida muhandis lavozimida boshlagan. Xizmat pillapoyalarini birma-bir bosib o'tib, 2000-yilda Sardoba tumani IIB Navbatchilik qismi katta

navbatchisi lavozimidan mayor unvonida izzat-ikrom bilan pensiyaga chiqdi.

Kapitan Isomiddin Keldibekov Toir akaning to'ng'ich o'g'li. U ayni paytda Xovos tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limida katta tergovchi lavozimida faoliyat ko'rsatadi. Hozirda firibgarlik, o'g'rilik kabi

holatlarni fosh etish, jinoyatga jazo muqarrarligini ta'minlash bilan band.

– Ichki ishlar organi xodimi bo'lish istagim dadamni o'ylantirib qo'ydi, – deb eslaydi Isomiddin. – U mendan: «Bu soha o'ta mashaqqatli. Ba'zan yarim kechagacha tinim bilmaysan. Qiyinchiliklarga chiday olarmikansan?» – deb so'radi. Bolaligimdan otamga havas qilganim uchun bu savolga hech ikkilanmay «Ha!» – deya javob berdim.

Sulolaning yana bir vakili Hasan Keldibekov. U o'tgan yili O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetini tugatgan. Hozirda Sirdaryo viloyati IIB YHXB Kadrlar bilan ta'minlash guruhi katta inspektori.

– Men otamning ishini davom ettirayotganimdan faxrlanaman, – deydi Hasan Keldibekov. – Kasbim o'zimga nihoyatda yoqadi. El osoyishtaligini ta'minlash sharaflari vazifa deb hisoblayman. Bu menga cheksiz g'urur bag'ishlaydi.

Osoyishtalik yo'lida

MINNATDORLIKDAN KUCH OLIB

Sobiq ittifoq davrida hadik bilan yashashgan fuqarolar huquq-tartibot idoralari xodimlaridan cho'chishgan. Bugun esa ichki ishlar organlari el-yurtga xizmat qiladigan xalqchil tuzilmaga aylanmoqda. Xo'sh, bu nimalarda aks etayotir? Mazkur savolga tizimning turli sohaviy xizmatlari faoliyati orqali javob izladik.

– Har kuni o'nlab hamyurtlarimiz ostonamizni hatlab kirib keladi, – deydi Boyovut tumani IIB M va PB katta inspektori, mayor Ilyos Muratov. – Ularning tashvishini aritish, hujjatini imkon qadar tez rasmiylashtirib berishga harakat qilamiz. Bundan ko'pchilik minnatdor bo'lishadi. Shunda o'zimiz ham bajarayotgan ishimizdan mamnunlik tuyamiz. Eng chekka qishloqlarga borib, ID-kartani rasmiylashtirib berganimizda, otaxon-u onaxonlar uzundan-uzoq duo qilishadi. Ana shunday paytda o'z kasbingdan nihoyatda faxrlanib ketasan, kishi.

Hayotda hammani ham rozi qilishning imkoni yo'q. Ayniqsa, oilaviy nizolar sabab murakkab vaziyatlar vujudga kelganida. Viloyatning chekka hududlaridan bo'lgan Sayxunobodda ham ba'zan oilaviy mojarolarga xodimlar aralashishiga to'g'ri keladi. Tuman IIB HPB XQMB katta inspektori,

leytenant Mashhura Abdumalikova yosh bo'lishiga qaramasdan ana shunday vaziyatlarda barchaning huquq va manfaatlarini e'tiborga olishga harakat qiladi.

– Oilaviy janjallardan bolalar eng ko'p jabr ko'radi, – deydi u. – Bunday paytda psixologik uslublarni qo'llab, og'ir-bosiqlik bilan vaziyatni yumshatamiz. Yosh farzandlari tirik yetim bo'lib qolishining oldini olganimiz uchun onalarning minnatdor nigohini ko'p his qilganmiz. Bu tuyg'uni so'z bilan ifodalash qiyin.

Uchinchi min-taqaviy hudud 8-sonli Tergov hibsonasi oldida har kuni o'nlab fuqarolarga duch kelish mumkin. Ichkarida ularning jigarbandlari. Muassasaga keltirilgan ayblanuvchi, gumon qilinuvchilarning deyarli barchasi ruhan tushkun holatda bo'ladi. Ayrimlari qilgan ishidan pushaymon,



ko'ngli vayron. Yoshi kattaroqlari mahalla-ko'y, quda-andalarim, farzandlarim oldida nima degan odam bo'ldim, deb ko'p takrorlashadi.

– Har qanday yopiq eshikning ochilishi tayin. Buning uchun inson harakat qilishi, ruhiy tushkunlikka tushmasligi kerak, – deydi muassasa boshlig'ining o'rinbosari, mayor Shuhrat Husanov. – Biz muassasamizga keltirilgan shaxslarga ana shu fikrni singdirishga harakat qilamiz. Bunday daldamiz ularning ko'pchiligiga ruhiy kuch beradi. Ba'zilar jazo muddatini o'tab bo'lgach, yangi hayot boshlaganida, bizga qo'ng'iroq qilib, o'z tashakkurini bildiradi.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Abdurahmon MUSTAFOQULOV tayyorladi.

Kasb fidoyisi



Bolalarning baxtli hayot kechirishini ta'minlash jamiyatning muhim vazifalaridan. Undan ham muhimi esa yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan boy, yuksak xislatlarga ega, zamon sinovlariga bardoshli etib tarbiyalashdir.

Guliston shahar IIB HPB VEMB inspektor-psixologi, katta leytenant Nursaid Aliqulov ana shunday ezgu ishga hissa qo'shayotgan insonlardan. U shahardagi to'rtta umumta'lim maktabida tahsil olayotgan olti mingdan ortiq o'quvchining yaqin maslahatchisi, zarurat tug'ilsa, sirdoshi bo'lishga harakat qiladi.

– Har bolaning o'zi bir olam. Shu bois ularning qalbiga yo'l topish oson emas, – deydi lavhamiz qahramoni.

Hamid Sharipov (ismlar o'zgartirildi) Guliston shahrining «Sayqal» mahallasida bobosi va buvisi bilan yashaydi. Ota-onasi uch yildirki, Rossiyada ishlashadi. Husan beboshroq bola. U o'ziga o'xshagan uch-to'rt tengquri bilan onlayn o'yinlarga mukkasidan ketgan. Bo'sh qoldi deguncha, internet klubiga kiradi. Shuning uchun davomati pasayib ketgan, o'zlashtirishi ham haminqadar.

Bundan xabar topgan katta leytenant Nursaid Aliqulov uch-to'rt bor uning bobosi bilan buvisini ogohlantirdi. Lekin o'zgarish bo'lavermadi. Shundan keyin holatga barham berishning o'zgacha uslubini tanladi. Tungi soat 23:30 larda o'smirni internet klubida sheriklari bilan uchratgach, ularni xizmat mashinasida shahar Ichki ishlar bo'limiga olib keldi. Bolalarning ota-onasi, vasiylari chaqirilib, hujjatlar rasmiylashtirilib, ular uylariga qo'yib yuborildi. Ushbu profilaktik jarayondan so'ng Hamidning davomatida ijobiy o'zgarish bo'ldi. Bemahalda sang'ib yurishlari to'xtadi.

O'smirlar qiziquvchan, ba'zilar hatto sarguzashtga o'ch bo'ladi. 15 yoshli Karimjon ham kutilmaganda hech kimga aytmay uyidan chiqib ketdi. Ertalab farzandini topa olmagan ota-onasi shahar IIBga murojaat qildi. Nursaid uning o'rtoqlari bilan sekin suhbatlashganida, Karimjon keyingi paytlarda «iPhone» rusumli uyali telefon olishga nihoyatda qiziqib yurgani, uydagilari esa ortiqcha pul bermayotganidan noligani ma'lum bo'ldi.

Sinfdozlaridan biri u Toshkentdagi avtomobillarni yuvish shoxobchasidan ish topgani, pul to'plab, yangi telefon olish uchun poytaxtga ketganini «gullab» qo'ydi. Karimjon yarim kechada poytaxtdagi ana shunday shoxobchalarning biridan topildi. Uning «iPhone» sotib olish orzusi keyinroq amalga oshadigan bo'ldi. O'smir oilasi bag'riga, o'qishga qaytarildi.

Ehtirom

BURCHGA SADOQAT NAMUNASI

IIV Hay'at yig'ilishida ko'p yillar davomida el-yurt osoyishtaligi yo'lida fidokorona xizmat qilib, sohada chinakam maktab yaratgan bir guruh xodimlar tantanali ravishda faxriylar safiga kuzatildi.

Tadbirda Ichki ishlar vaziri, general-leytenant Aziz Tashpulatov pensiyaga kuzatilayotgan har bir xodimning tizim rivoji va yurt tinchligi yo'lida qo'shgan beqiyos hissasini alohida e'tirof etdi. Ushbu soha fidoyilari ko'plab shogirdlarning ustoz bo'lgan polkovniklar – yosh avlod uchun Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishning ibratli namunasi ekanini alohida ta'kidlab o'tdi.

Polkovnik Shuhratjon Satvoldiyev ichki ishlar organlari tizimida terrorizm va giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda yuksak natijalarni qo'lga kiritgan tajribali va mahoratli rahbarlardan biridir. U Toshkent shahar Chilonzor tumani IIOFMB boshlig'i, shuningdek, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari IIB boshlig'i kabi mas'uliyatli lavozimlardagi faoliyati davomida ko'plab malakali shogirdlarni tarbiyalashda o'z hissasini qo'shdi.

Polkovnik Barat Mamenov o'zining sharaflari xizmat yo'lini 1989-yilda Surxondaryo viloyati IIBda oddiy



inspektorlikdan boshlagan bo'lib, faoliyatining asosiy qismini aynan yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashdek mas'uliyatli sohaga bag'ishladi. U sermahsul faoliyati davomida Toshkent shahar IIBB YHXB boshlig'i hamda IIV Jamoat xavfsizligi departamentining mas'ul lavozimlarida fidokorona xizmat qildi.

Polkovnik Bernora Sadikova ichki ishlar organlaridagi ko'p yillik samarali faoliyati davomida tizimning eng mas'uliyatli yo'nalishlarida, xususan, IIV Shaxsiy tarkib bilan

ishlash xizmatida sidqidildan xizmat qildi. U nafaqat tajribali rahbar, balki yosh xodimlar uchun mehribon ustoz va ibrat maktabi bo'la oldi. Tizimda xotin-qizlar masalalari bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarda faol ishtirok etib, xizmat intizomi va qonuniylikni mustahkamlashga hissa qo'shdi. 2018-yildan IIV Birlashgan tahririyati bosh muharriri sifatida faoliyat yuritib, tizimdagi ijobiy o'zgarishlarni keng yoritish, nashrlarni yanada o'qishli bo'lishida jonbozlik ko'rsatdi.

Tantanali tadbir yakunida pensiyaga kuzatilayotgan polkovniklarga vazirlikning «Ichki ishlar organlarining faxriy xodimi» ko'krak nishoni topshirildi. O'z navbatida, ustozlar ko'rsatilgan yuksak ehtirom va doimiy e'tibor uchun minnatdorlik bildirib, kelgusida ham faxriy sifatida soha rivojiga kamarbasta bo'lishga hamda boy hayotiy tajribalarini yosh avlodga o'rgatishdan charchamasliklarini ta'kidladilar.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

FIDOYILIK YO'LIDA BIRGAMIZ DOIM

(Qorovul qo'shinlari 7534-harbiy qism 1-batalyon nazoratchilar vzvodi 1-guruh komandiri, serjant Zebo Yaxshiboyevaga)

Musofir yo'llarda onamdan yiroq,
Sog'inchning o'tida yonsa bu tanim.
Zahmatli yo'limga porlagan chiroq,
Dardimga darmonim – ey murabbiyim!

Kim ko'nglim og'ritsa, ozorlar bersa,
Sizdan topdim malham, qalbga yupanchim.
Agar ko'zlarimga g'am-alam to'lsa,
Siz bo'ldingiz suyanchim hamda ishonchim.

Men xafa bo'lsam gar, mahzun bo'lasiz,
Yuzingizdan birdan qochur tabassum.
Quvongan chog'imda birga kulasiz,
Shu on o'z-o'zimga kelur havasim.

Sabrni do'st qilib, ertani kutib,
Matonat yo'lidan boshlab ketyapsiz.
«To'marisdek mard bo'l», deya qo'l tutib,
Men uchun qanchalar zahmat yutyapsiz.

«Vatan!» deb qasamyod ichgan chog'imiz,
Ko'zingizda ko'rdim faxr olovin.
Siz bilan yuksalur ko'ngil tog'imiz,
Birga ko'tarurmiz yurtning yalovin.



Poligon yo'llari – zahmatli yo'llar,
Yelkada avtomat, yurakda qasam.
Charchab toliqqanda titrasa qo'llar,
Ruh berdingiz bizni qo'llab juda ham.

Hech ko'rmadim sizdek mehribon jonni,
Siz bilan haqiqat bo'ladi ayon.
Harb yo'li – qattiq yo'l, mardlar maydoni,
Biz birga borurmiz, boshlang ey, sarbon!

Munavvara ASQAROVA

Связь поколений


Путь чести и долга

В тот день вооруженные преступники совершили дерзкий захват пассажирского автобуса. Используя людей в качестве живого щита, нападавшие направили удерживаемый транспорт в сторону населенного пункта Питнак.



Правоохранительные органы стянули к району происшествия значительные силы, в том числе из областного центра. Развернулась совместная операция по вызволению заложников. Обстановка накалилась до предела. На кону стояли жизни граждан, и силовики были готовы к любому развитию событий.

Преступников удалось нейтрализовать, но цена победы оказалась высокой: несколько сотрудников



События 30 марта 1999 года на посту «Саримой», который называют «воротами» в Хорезмский оазис, вошли в историю правоохранительных органов как героическая страница, символизирующая верность служебному долгу.

правоохранительных органов получили ранения, были и погибшие. В их числе – старшина ОВД Фарход Собиров. Ранение героя

оказалось несовместимым с жизнью...

Ф. Собиров родился в Ургенчском районе. Когда он учился на втором курсе

автомобильно-дорожного техникума, его призвали в ряды Вооруженных Сил. Именно в армии юноша принял окончательное решение – пойти по стопам отца, Отабоя Собирова, долгие годы прослужившего в органах внутренних дел. Выбрав стезю защитника правопорядка, в дальнейшем Фарход поступил на службу в ОВД. С 1992 года работал в приемнике-распределителе для несовершеннолетних, в 1996 году был назначен инспектором отдельной роты ДПС УВД Хорезмской области. Ф. Собирова, умевшего брать на себя ответствен-

ность в критических ситуациях, в феврале 1999 года переводят в дежурную часть. Это произошло за месяц до его трагической гибели...

За мужество и отвагу, проявленные в ходе операции, Указом Президента Узбекистана в числе других правоохранителей Фарход Собиров был посмертно удостоен ордена «Шон-шараф» II степени. Его имя сегодня носит центральная улица кишлака Гайбу Ургенчского района. Память о нем запечатлена и в камне.

– Мой сын был человеком чистой души и твердого слова, – с гордостью говорил отец героя, капитан в отставке Отабой Собиров.

Эстафету поколений принял сын Фархода – рядовой Элёрбек Отабоев. Свою деятельность он связал с информационной службой УБДД УВД Хорезмской области – продолжает путь деда и отца, делом доказывая верность призванию.

**Нилуфар ЖАББОРОВА,
Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.**

Хорезмская область.

Наставничество

Там, где нужна помощь

Подполковник Феруза Джуманазарова – старший инспектор группы по вопросам женщин УКД ОВД Мирзо-Улугбекского района г. Ташкента. За ее плечами 27 лет службы, наполненных ответственностью, стремлением помогать людям.

Для самой Ферузы Сауранжановны эти годы стали не просто трудовым стажем, а жизнью, в которой были и серьезные испытания, и профессиональные победы. Путь в органы внутренних дел она выбрала осознанно. По словам офицера, главным желанием было приносить реальную пользу обществу.

К работе по вопросам женщин она пришла уже в процессе службы, когда на практике увидела, насколько важно своевременно поддержать женщину, оказавшуюся в сложной жизненной ситуации.

– Иногда человеку достаточно того, чтобы его выслушали, поддержали и вовремя направили, – отмечает она.

День старшего инспектора начинается с утреннего развода, где распределяются задачи и определяются основные направления работы. Затем следуют выезды по обращениям граждан, профилактические мероприятия.

– Обращения поступают не только днем. Бывает, что сигналы приходят и ночью. В таких случаях мы обязаны оперативно реагировать, выезжать на место и

принимать необходимые меры, – подчеркивает подполковник Джуманазарова.

Значительное внимание в районе уделяется профилактической работе среди молодежи и девушек. В соответствии с постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19 января 2023 года № 21 девушки, желающие поступить в Академию МВД или Университет общественной безопасности, проходят отбор, после чего привлекаются к практике вместе с инспекторами по вопросам женщин.

Одним из примеров успешного взаимодействия стала работа с участницей группы «Последовательницы Тумарис» Мафтуной Озодовой. С сентября прошлого года они совместно проводят мероприятия, встречи в образовательных учреждениях.

– Она ответственно относится к поручениям и умеет доводить дело до конца, – говорит о своей помощнице Феруза Сауранжановна.

По ее мнению, участие гражданских активистов значительно усиливает связь между обществом и правоохранительными органами.



Результаты такой деятельности уже заметны. На участке, закрепленном за инспектором, в семейно-бытовой сфере наблюдается положительная динамика. Благодаря индивидуальному подходу и своевременному вмешательству удается предотвращать конфликты и правонарушения.

В практике старшего инспектора немало непростых случаев. Один из них связан с серьезным семейным конфликтом, возникшим на фоне злоупотребления алкоголем. Женщине была оказана правовая и психологическая помощь, оформлен охранный ордер. С супругом проведена профилактическая работа, подключены профильные службы, даны направления на лечение и реабилитацию. В результате ситуацию удалось стабилизиро-

вать и помочь семье восстановить нормальные отношения.

Несмотря на высокую занятость, Феруза Джуманазарова сумела состояться и как многодетная мать, воспитав четверых детей.

Сегодня подполковник Джуманазарова остается примером преданности профессии, силы характера и искреннего служения людям. А женщинам, оказавшимся в трудной жизненной ситуации, она советует главное: «Не оставайтесь со своей проблемой наедине. Каждая женщина имеет право на безопасность, поддержку и защиту».

**Юлия МУСТАФАЕВА,
соб. корр.**

BOARD MEETING

BASED ON CRITICAL ANALYSIS, IN A SPIRIT OF STRICT ACCOUNTABILITY

The MIA Board meeting was held via video conference, with the participation of leaders from the central office and regional internal affairs bodies. The meeting discussed the results and shortcomings in the fight against crime, prevention, and public safety during the first quarter of this year.

The Minister of internal affairs of the Republic of Uzbekistan, lieutenant general Aziz Tashpulatov, stressed that reforms and public security issues are a matter of concern for the head of state.

In the first quarter:

- 83.8% of preventable crimes were detected;
- the detection of crimes increased by 37.1%;
- 2,193 wanted individuals were apprehended;
- 1,187 missing persons were found;
- 872 kg of narcotic drugs and 296,851 pills of strong medicines were seized;
- 12 drug laboratories were shut down;
- 3,554 cybercrimes were uncovered, and 50 billion sums in damages were recovered.

81.3% of neighbourhoods were maintained in the «green» category, and no

«red» neighbourhoods were recorded in 99 districts.

Attention was also paid to digitalisation, noting that 59 state services have been introduced, 48 of which are provided electronically.

At the meeting, shortcomings in discipline, the handling of correspondence, and prevention were criticised. Some leaders were warned, while outstanding employees were commended.

In conclusion, tasks were set for the early prevention of crime, increasing public trust, and the widespread implementation of modern technologies.

PUBLIC SAFETY

A RESPONSIBILITY THAT TAKES PRIORITY OVER SLEEP

Night-time service operations in the Chilonzor district of Tashkent are being conducted under constant supervision. At a pre-service briefing held at the district police department, tasks under the «Safe capital» concept were outlined and personnel were deployed to the districts.



Additionally, during night-time service, a citizen who was disturbing public order was identified by lieutenant Sardor Sobirjonov, and the appropriate measures were taken. In the «Beshqorqon» neighbourhood, senior lieutenant Jaloliddin Mamatqulov put a stop to a disturbance of the night-time peace.

According to the 1st detachment Directorate for maintenance of public order, 31 violations were identified and 33 preventative talks were conducted overnight. In addition, 110 suspicious individuals were checked.

A number of violations were also identified by officers of the 4th Battalion of the traffic patrol service: junior sergeants Farkhad Kholmuminov, Azamat Alimov and Mirfozil Nosirov.

It should be noted that it is thanks to the selfless service of the Interior Ministry's personnel that citizens are able to live in peace and security.

During night-time service, the conditions and security measures established on the gastronomic street connecting the «Mehrojon» and «Botirima» neighbourhoods on Al-Khwarizmi Street were inspected. Major Shukhrat Yangiboyev noted that the area is equipped with CCTV cameras and «panic buttons», and that patrol and preventative services are working in cooperation.



A LIFE WELL-LIVED

«THE REAR WAS ALSO A FRONT»


recalls Raushan Samarkhanova

Labour front veteran Raushan Samarkhanova is now 96 years old and is one of those who have lived a meaningful and exemplary life. She was born in 1930 in the «Red farmer» collective farm of the Kungrad district.

Her childhood coincided with the years of the Second World War and was spent during a period of great hardship. Her father, Samarkan Naurizov, was mobilised to the labour front in 1942 and worked in the city of Chelyabinsk. During this time, Raushan remained with her mother and younger brother, actively participating in agricultural work alongside the adults.

During the war years, under the slogan «Everything for the front», children also worked. Raushan was involved in difficult tasks such as fighting floods, tending the cotton fields, and preserving the harvest. In particular, the memory of her family being forced to live in a cellar for two years following the floods of 1943, as well as the dangerous situations she experienced during arduous work in the fields, are etched in her memory.

Through his hard work, she joined the ranks of the «Stakhonovite» pioneers from a young age and was honoured with



several honorary titles and awards.

In 1947, he married a NKVD officer, Kudaibergen Mominov. K. Mominova was actively involved in establishing the fire safety system in Karakalpakstan, serving as Deputy head of the Fire safety Department from 1962 to 1983.

READER FEEDBACK

WE ARE LOOKING FORWARD TO «ON POST FOR CHILDREN» AGAIN!

I read the first issue of the «On post for children» section with great interest. I used to think the «On post» newspaper was just for adults when my father or grandfather read it. I was delighted to see that there are now special colour pages for children our age. I was particularly interested by the «From our peers» section, which features drawings and creative work. Seeing the drawings by my peers inspired me to draw and write a poem to send to the editorial office myself. I was particularly impressed by the stories in the «Greats' childhood» section. The section is very colourful and has been prepared in an easy-to-understand language. I would also like my favourite newspaper to have columns such as «Stay out of trouble!», «My hero», and «English is easy with us». We look forward to the «On post for children» section.

A year 6 pupil at the Ministry of internal affairs' specialised boarding school.



Diyorbek
HAYITBOYEV.

Translated by Munavvar RASHIDOVA,
docent.

Mardlar mangu yashaydi

MILLAT FIDOYILARI NOMI BARHAYOT



IIV Ma'naviy-ma'rifiy va kadrlar bilan ta'minlash departamenti katta inspektori, iste'fodagi polkovnik, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, «Do'stlik» ordeni sohibi, taniqli shoir va tarjimon Zikrilla Ne'matovning «Yovqur o'g'lonlar yodi» nomli kitobi istiqlol yillarida mamlakat himoyasi yo'lida halok bo'lgan 206 nafar mard va jasur harbiy xizmatchilar hamda huquq-tartibot organlari xodimlarning porloq xotirasiga bag'ishlangan.

Bu kitobni har bir yosh, ayniqsa, vatan himoyasiga otlangan, harbiylik, huquq-tartibot, shuningdek, yong'inlar, tabiiy va texnogen ofatlar, turli favqulodda vaziyatlarning oldini olish sohalarini tanlagan yigit-qizlar birinchi galda o'qishi kerak. Negaki, uchishga shaylangan lochin parvoznig mashaqqatlari, bu yo'lda erishish

mumkin bo'lgan yutuqlar, yo'qotishlar, oldindagi qiyinchiliklar, parvoz yuki va mas'uliyatini o'zidan oldin ko'kka uchgan lochinlardan o'rgangani kabi bo'lajak yosh harbiylar ham ushbu kitobdan o'zlariga tegishli xulosalar, hayot hamda xizmat saboqlarini oladilar.

Quyida taniqli shoirning ushbu to'plamga kiritilgan she'rlaridan parchalar keltiramiz.

Sho'rchilik edi asli, leytenant **Ahmad Qurbon**,
El osoyishtaligin sergak, bedor posboni.
Xavfli g'iyohvandlarni qo'lga olish chog'ida,
Yovuzlar sanchgan tig'dan evoh, uzildi joni.

Yigirma olti yoshli, navqiron bir yigitning
Erta ko'z yumganiga chidab bo'lmaydi sira.
Ammo faqat bir tuyg'u qalblarga berar taskin:
Qoldirdi u o'zidan yaxshi nom, pok xotira.

Mard **Begijon Atamov** – payariqlik chin posbon,
Tunda shubhali shaxsning iziga tushdi darhol.
U portlovchi moddani qo'ynida etgan pinhon,
Pokistondan qaytgan bir jangari edi alhol.

Izidan mard serjantning tushganligin ko'ribon,
To'pponchadan uch bora o'q uzdi u da'fatan.
Qotil g'anim ushlendi, lek, halok bo'ldi o'g'lon,
Uning bu jasoratini unutmas aslo Vatan.

Keleslik mard kapitan – jasur **Botir Rizayev**
Sherigi-la poytaxtda xizmat qilardi tunda.
Nogohon muyulishdan chiqib keldi bir «Damas»,
Uch-to'rtta shubhali shaxs ko'rinar edi unda.

Shubhalanib bu holdan elu yurt posbonlari
Tekshirib ko'rish uchun to'xtatishdi «Damas»ni.
«Tungi mehmonlar» shaxsin aniqlasharkan, birdan
Qo'lida tig' «yarq» etdi salondagi bir kasning.

Va u birdan tig' sanchdi, bir emas uch-to'rt marta
Yosh o'g'lon **Muhammedov Olimjonning** ko'ksiga.
Shunda ko'ksin changallab yiqildi el posboni,
– Ehtiyot bo'ling, qurol!... deganicha do'stiga.



Buni ko'rib kapitan g'azabga to'lib qalbi,
Yolg'iz o'zi tashlandi to'rttala yovuz shaxsga.
Shunda bir kas qo'ynidan qirqma miltiq chiqarib
Botirjonning boshiga qarab o'q uzdi shartta

Yaralangan bo'lsa-da, kapitan tinmay bir zum,
To'rt yovuz qotil bilan olishardi bir o'zi.
Va ratsiya orqali markazga yetdi uning:
«Bizga hujum qilishdi, yordam shart...» degan so'zi.

El posbonin qoniga bo'yagan bo'lsalar-da,
Botirning changalidan chiqolmagan qotillar.
Qirqma miltiqlarini darhol o'qlashib qayta
Ikkinchi o'qni uning yuragiga otdilar...



Xizmat burchin bajarib shu tarzda ikki xodim,
Halok bo'lishdi elu yurt tinchligi yo'lida.
Avval ham kimlarningdir umriga bo'lgan zomin,
Yovuz qotillar esa tezda olindi qo'lga...

Ko'hna Urganchlik edi **Qutlimurod Ro'zmetov**,
Ichki ishlar xizmatini yosh bir kichik serjanti.
Jonin tikib, yovuzlar yo'lga bo'lgancha g'ov,
Burchiga sodiq qoldi mard Xorazm farzandi.

Qurol o'qalgan kasni bu ham o'tsa bo'lardi,
Shunda posbonmas, qotil jinoyatchi o'lardi.
Lekin uni ayadi, otmadi Qutlimurod,
Bilmaski, rahmdilga rahm qilmas bu hayot.



Mayor **Nodirbek Yunus** – Farg'onalik pahlavon,
Terrorizmga qarshi kurashib muzofotda.
Safdoshlari singari jalb etilgandi o'g'lon-
Vodiy uzra razvedka ishiga vertolyotda.

Lekin shu kuni kuchli shamol edi-yu nogoh,
Boshqaruvni yo'qotib qulab, tushdi vertolyot.
Bu muhim topshiriqni bajarish payti, evoh,
Bir zumda shamdek so'ndi o'ttiz besh yillik hayot.

Yo'q, yo'q, shamdek so'nganmas,
aylandi u chaqmoqqa,
Va o'zini baxsh etdi Vatanni asramoqqa.
Endi mag'rur o'g'lonning qilgan ezgu ishlari,
Chorlab turar qalblarni, aylanib zo'r mayoqqa.

Mard kapitan – **Yermamahmad Abduvalitov**,
Tekshirardi shaharda tungi postlar xizmatini.
Ikki ming o'n oltinchi yil, yigirma beshinchi may,
Fojiali bitkazdi botir o'g'lon qismatin.

Poytaxtnig u markaziy Amir Temur ko'chasi
Uning umr yo'lga aytgandek go'yo omin.
O'qdayin uchib kelgan «Neksiya» mashinasi
Kapitanning umriga, evohkim, bo'ldi zomin.

Lek, mard o'g'lon o'tsa-da, aziz umr yo'ldoshi –
Dilbarxon bois orzulari bardavom.
O'g'loni Narimonu qizi Roziyaxonlar
Ota kasbin faxr-la aylab kelishar davom.

Mard **Adilbek Sultonov** – Ellikqal'a o'g'loni,
Post-patru xizmatida edi eng sergak serjant.
Yomondan tozalaymiz degancha bu dunyoni,
O'sha kun doimgidek xizmat ila edi band.

U turgan postga o'qdek uchib keldi mashina,
To'xtamay urib ketdi, el posboning nogahon.
Uni qutqazmoq-chun oyoqqa turdi shifoxona,
Lek, afsus hafta o'tmay ko'z yumdi mag'rur o'g'lon.

O'g'lin qo'msab otasi har tun bo'lib bag'ri xun,
«Hech kim farzand dog'ini ko'rmasin!» –
deb bo'zlaydi.

O'z yoriga vafodor Muhtaramxon tunu kun,
Farzandlarga otasin mardligidan so'zlaydi.

Меҳнат fronti фидойилари

ЗУЛМАТ СОЯСИДАГИ РАВШАН УМР

Қорақалпоқ халқида «Ёшлигимизда бер меҳнат, қариганда бер давлат» деган нақл бор. Бу нақл бугун табаррук 96 ёшни қарши олаётган меҳнат fronti фахрийси Раушан момо Самарканованинг ҳаёт йўлини тўла ифода этиб тургандек гўё. Чунки унинг болалик пайти суронли Иккинчи жаҳон уруши йилларига тўғри келди. У барча қийинчиликларни катталар қатори матонат билан енгиб ўтди. Ҳозир эса 15 нафар набира ва 10 нафар эваранинг суюкли бувиси бўлиб, қариллик гаштини сурмоқда.



Онахон 1930 йили Қўнғирот туманининг «Қизил деҳқон» жамоа хўжалиги 5-овулида дунёга келган. Қирғинбарот уруш бошланганида бошланғич синфда ўқиб юрганди. Овулдаги аксар эркаклар фронтга сафарбар этилди. Отаси Самаркан Науризов эса саломатлиги ёмонлиги туфайли 1942 йили меҳнат fronti батальонига чақирилиб, узоқ Челябинск шаҳридаги танк заводида, шахталарда ишлашига тўғри келади. Оилада Раушан ойиси ва укаси Жақилик билан бирга қолади.

– Ҳамон ёдимда, эрталаб мактабга борардик. Бир-икки соат дарсдан сўнг барча ўқувчилар қишлоқ хўжалиги ишларига жалб

этиларди, – дейди у. – Катталар бизга ғалабага эришсагина тинч-тотув ҳаёт тикланиши, оталаримиз қайтиб келиши, тўйиб овқат ейишимиз, бемалол ўқишимиз мумкинлигини тушунтирарди. Менимча, ана шу сўзлар болаларга чидам, куч-ғайрат ато этган бўлса керак.

Ўша йиллари тез-тез дарё тошиб турарди. Шундай пайтлари мактаб ўқувчилари ҳам сувни тўсиш учун ёрдамга чиқарди. Биз кичкинalar бир қатор бўлиб тизилиб турардик, қўлимиздаги матога бир белкурақдан тупроқ солишарди (ундан ортиғини кўтара олмасдик ҳам), шуни дамба тепасига олиб чиқишимиз керак эди. Бу машақ-

қатли иш сув олди тўсиғи тайёр бўлгунча давом этарди.

1943 йили дарё ҳаддан ташқари тошиб, туманимизнинг айрим ҳудудлари, шу қатори бизнинг овулимиз ҳам сув остида қолди. Аҳоли бошқа жойга кўчиб ўтди. У ерда уй солиши учун имкон ҳам, вақт ҳам етмасди. Шу боисдан 2 йил ертўлада яшашга мажбур бўлганмиз. Кечаси ухлагга ётганимизда ертўла шифтида илон ёки чаённи кўриб, кўрққанимиздан ойимизнинг пинжиги тикилиб йиғлаганларимиз ҳамон ёдимда. Уруш тамом бўлиб, отамиз қайтиб келганидан сўнггина, у қурган уйга кўчиб ўтганмиз.

– Ўша даврда илғор ишчилар ҳаракати бўларди. Тер тўкиб қил-

ган меҳнатларим туфайли мен ҳам 14–15 ёшларимдаёқ улар қаторидан ўрин олдим. Берилган нормани ортиғи билан бажарганим учун фахрий ёрлик беришган, мато, озиқ-овқат маҳсулотлари билан мукофотлашган. Ҳозир шу даврлар эсимга тушса, ёш бошимизга шунча ишни қандай уддалаганмиз деб ҳайрон қоламан. Тилагим: шундай оғир ва мусибатли кунлар ҳеч қачон қайтиб келмасин. Бугунги тинч-осойишта, фаровон кунларимизга, юртимизнинг ободлигига кўз тегмасин, – дейди Раушан момо.

1947 йилда у ички ишлар органи ходими бўлган Қудайберген Мўминов билан турмуш қурди. Онахоннинг умр йўлдоши 1962–1983 йиллар давомида Ёнғин хавфсизлиги бошқармаси бошлигининг ўринбосари лавозимида фаолият кўрсатиб, подполковник унвонида пенсияга чиқади ва 2002 йилда вафот этади.

Иккиси биргаликда уч фарзандни тарбиялаб вояга етказди. Қизлари Роза ва Жақсибийке жамиятимизнинг турли соҳаларида фаолият олиб бориб, ҳозир пенсияда. Ўғли Сабит Мўминов эса ота йўлини давом эттириб, 1987–2007 йилларда ички ишлар органларида хизмат қилиб, подполковник унвонида пенсияга чиққан.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,
ўз мухбиримиз.**

Қорақалпоғистон Республикаси.

Инсон — азиз, хотира — муқаддас

МУНГЛИ НИГОҲЛАР ОРТИДАГИ БУЮК ОРЗУ

Ҳаётнинг кутилмаган синовлари қаршисида инсон ожиз қолади. Айниқса, Ватан осойишталиги йўлида жонини фидо қилган инсонларнинг оилалари учун бу синовлар янада оғир кечади...

Ўтган йилнинг 1 июль куни Андиджон вилояти Хўжаобод тумани ИИБ ЖХХ ХПБ профилактика инспектори, катта лейтенант Абдурасул Абдувалиев тезкор хабар бўйича хонадонлардан бирига етиб борди. Маст ҳолатдаги ушбу хонадон соҳиби Юнусали Холбозоров оила аъзоларига пичоқ ўқталиб таҳдид қилаётган эди.

Уларнинг ҳаётини сақлаб қолиш учун Абдурасул Абдувалиев зўра-



вонни тўхтатишга ҳаракат қилади. Уй эгаси унинг кўксига пичоқ санчади. Мард инспектор олган оғир жароҳати оқибатида ҳаётдан бевақт кўз юмди. У хизмат бурчини бажариш чоғида кўрсатган мардлиги учун вафотидан сўнг «Жасорат» медали билан тақдирланди.

У уч нафар фарзанднинг отаси эди. Тўнғичи Абдурахмонбек эндигина 6-синфга, Санобархон 2-синфга ўтганди, кенжатои Муҳаммадий эса атиги икки ярим ёшли эди.

Абдурасулнинг турмуш ўртоғи Дилрабо Сотволдиева барча оғирликларга қарамай, фарзандларини вояга етказиш ва ҳаёт синовларига бардош бериш учун ўзида куч топа олди. Қолаверса, давлатимиз, ИИБ раҳбарияти ҳамда Абдурасулнинг дўсту ёрлари бу оилага эътибор ва ғамхўрлик кўрсатиб келишмоқда.

– Кўнгил сўраш учун келган Ички ишлар вазири, генерал-лейтенант Азиз Ташпулатов катта ўғлим Абдурахмонбекка отасининг изини давом эттириши учун имконият борлигини, хоҳласа, ўқишини ИИБ Ихтисослаштирилган мактаб-интернатда давом эттиришини айт-

ганида, у ўйлаб ҳам ўтирмай рози бўлди, – дейди Дилрабо Сотволдиева.

Ҳозирда Абдурахмонбек ИИБ Ихтисослаштирилган мактаб-интернатнинг 6-синфида таҳсил олмоқда. Унинг бу танлови шунчаки таълим йўли эмас, отаси бошлаб берган шарафли йўлни давом эттиришга бўлган қатъий қарор, қалбидаги аҳддир.

Унинг ҳар бир куни масъулият билан бошланади. У фақат дарсларни пухта ўзлаштириш билан чекланмайди, балки интизом, жасорат ва ватанпарварлик каби юксак фазилатларни қалбига сингдиришга интилади. Чунки яхши биладики, ҳар бир ютуғи — бу отаси хотирасига билдирилган эҳтиром, унинг орзуларига қўйилган яна бир қадамдир.

Абдурахмонбек мунгли нигоҳини бир нуқтага тикиб, отасини шундай хотиралади:

– Отам бўш вақтларини доим биз билан ўтказарди... табиат қўйнига олиб чиқарди, боғларга олиб борарди... Жуда меҳрибон эди. «Келажакда олий маълумотли, яхши касб эгаси бўлиш учун кўп ўқиш керак»,



– деб кўп таъкидларди. Бизга тез-тез китоблар совға қиларди... Ўша китоблар бугун мен учун отамдан қолган энг азиз эсдаликка айланган...

Бу сўзлар ортида бир боланинг армонлари, чексиз соғинч мужассам. Бугун Абдурахмонбек нафақат аълочи ўқувчи, балки тенгдошлари учун ибрат бўлаётган жасур йигитдир. У келажакда отаси каби Ватанга хизмат қилишни энг муқаддас бурчи деб билади. Бу эса қаҳрамон отанинг орзулари давом этаётганидан далолатдир.

Дарҳақиқат, қаҳрамонлар ёди ҳеч қачон унутилмайди. Улар нафақат ўз ҳаёти билан, балки тарбиялаб қолдирган авлодлари орқали ҳам абадий яшайди.

**Адолат ФАЙЗИЕВА,
ўз мухбиримиз.**

Тошкент шаҳри.

Ko'zgidagi o'zimiz

VIRTUAL MASHHURLIK ISHTIYOQI yoxud real mas'uliyatsizlik



So'nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda o'zining go'yoki «mahoratini» ko'rsatib, balki yo'l harakati qoidalarini mensimayotgan va o'rnatilgan tartib-qoidalarini qo'pol tarzda buzayotganini ochiqdan-ochiq namoyish etayotgan haydovchilar keskin muhokamalarga sabab bo'lmoqda.

Yaqinda Samarqand ko'chalarida yarim tunda xavfli manyovrlar qilgan «showvozlari», yana bir holatda yuqori tezlikda harakatlanganiga ishora qilib, yo'l-patrul xizmati xodimlariga nisbatan bepisandlik bilan «Andijon GAllarining duxi yetsa olib kirib qo'ysin», deya ijtimoiy tarmoqlarga video joylagan «qahramonlar»ning qilmishi bunga yaqqol misol. Ushbu holatlar soha xodimlari tomonidan o'rganilib, vaziyatlarga huquqiy baho berildi. Zero, jamiyatda qonun ustuvorligi – oliy mezon.

Biroq bizni mazkur voqea ishtirokchilarining xatti-harakatlari bilan bir qatorda ularning maqsad-muddaosi o'ylantiradi. Sababi, inson ongli mavjudot, uning har bir qadami zamirida muayyan maqsad yotadi.

«LAYK» VA «PROSMOTR» INSON JONIDAN QADRLIMI?

Samarqanddagi holatda radarlardan qochish uchun davlat raqamini o'zgartirib, xavfli harakatlarni amalga oshirish zamirida birgina istak – ijtimoiy tarmoqlarda «mashhur» bo'lish, ko'proq «layk» va «prosmotr» yig'ish turganiga

nima deysiz?! Nahotki, virtual dunyodagi soxta obro' inson hayotidan ustun bo'lsa?!

Yoki Andijondagi holatni oladigan bo'lsak, bugun yo'llarda minglab harakat ishtirokchilarining xavfsizlikni ta'minlash haqida qayg'urib, xizmat qilayotgan soha xodimlariga nisbatan o'rinsiz gap-so'zlar aytish qaysi odob mezonlariga to'g'ri keladi?

«SHO'XLIK»MI YOKI JINOYAT?

To'g'ri, ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Ammo imkoniyatlar olamida tanilish istagi ayrimlarni, ayniqsa, yoshlarni aql bovar qilmaydigan xatolarga undamoqda. Avtomobil raqamini almashtirish – bu shunchaki «sho'xlik» emas, balki javobgarlikdan qochishga ataylab urinish emasmi? Yo'ldagi xavfli «drift»lar esa nafaqat qoidabuzarning, balki haydovchilar va piyodalarning hayotini xavf ostiga qo'yishdir. Bunday mashhurlikning yakuni pushaymonlik, hatto fojia bilan tugamasligiga kim kafolat beradi?

OILADAGI NAZORATNING CHEGARASI QAYERDA?

Yana bir og'riqli jihat – yosh yigitlarning tungi soat ikkida oila a'zolari shirin uyquda bo'lgan mahalda uydan yashirinchagina mashinada chiqib ketishi. Bu oiladagi nazorat qay darajada ekanini ko'rsatuvchi jiddiy signaldir, aslida. Ota-onaning farzandi kim bilan, qayerda yurganidan bexabar-

ligi – bu «erkinlik» emas, balki jigarbandini o'z qo'li bilan xatarga itarishdir.

MADANIYAT – TEZLIKDA EMAS, VAZMINLIKDA

Avtomobil boshqarish – bu shunchaki texnik mahorat emas, balki haydovchining ichki madaniyati va atrofdagilarga bo'lgan hurmatining ifodasidir. Bunda haqiqiy mahorat xavfli tryuklarda emas, balki yo'llarda madaniyat bilan harakatlanish, kerak bo'lsa vazminlikda, odobda namoyon bo'ladi.

XULOSA O'RNIDA

Ushbu voqealarni tahlil qilar ekanimiz, bir haqiqat ayon bo'ladi: bu «qahramonlar» osmondan tushmagan, ular – bizning jamiyatimiz a'zolari. Afsuski, ma'lum ma'noda ular – ko'zgidagi o'zimiz.

Virtual dunyodagi mashhurlik real hayotdagi qonunlardan va inson qadridan ustun emas. Yo'l esa xatolarni kechirmaydi, qonun barcha uchun barobar va har qanday «showvozlari»ning jazosiz qolmasligi tayin. Haqiqiy hurmat, taniqlilik xavfli videolar bilan emas, balki mas'uliyatlilik, orqali qozoniladi. Sirasini aytganda, virtual mashhurlik ishtiyoqi real mas'uliyatsizlikka aylanib qolmasligi kerak.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Kitobxon xodim

«ONAMNING HIKOYALARI SABAB...»

Samarqand viloyati IIB Ekspert-kriminalistika markazi katta eksperti, podpolkovnik Odiljon Karimovning ota-onasi o'qituvchi bo'lganligi sababmi, kitobga, mutolaaga mehri bo'lakcha. Ayniqsa, onasi Subxinisa opa qish kunlari issiq pechka oldida Cho'lpon va Abdulla Qodiriy kitoblarini o'qib o'tirganiga ko'p bora guvoh bo'lgan yosh Odiljon onasining har bir so'zini diqqat bilan tinglar, so'zlarga yashiringan ma'nolarni ilg'ashga intilar, tushunmaganlarini onasidan so'rardi.

Vaqt o'tib, u bugun podpolkovnik, tajribali mutaxassis. Kasbi aniqlik, diqqat va tahlilni talab etsada, qalbidagi adabiyotga muhabbat tuyg'usi doim bezovta qiladi. Qo'lga kitob olmasa nimanidir yo'qotgandek bo'ladi.

– Ilk o'qigan kitobim – rus tilidagi jahon xalq ertaklari bo'lib, badiiy to'qima asnosida yaratilgan mazkur ertaklar qa'riga sho'ng'ib ketdim. Ularning insonlarni yaxshilikka yetaklashiga, baxt manziliga yetkazishiga chin dildan ishonдим. So'ng Ivan Turgenevning «Mumu» hikoyasini, Anton Chehov va Abdulla Qahhor hikoyalarini mutolaa qildim. Keyinchalik o'zbek va jahon adabiyoti durdona asar-



Samarqand viloyati.

larini to hozirgi kunga qadar o'qib kelmoqdaman, – deydi podpolkovnik Odiljon Karimov. – Uyimda shaxsiy kutubxonam bor. Taxminan 700 dan ortiq ilmiy va adabiy janrdagi kitoblar jamlangan.

Viloyat IIB MMI va KBTX bo'linmalari AR markazi kichik mutaxassis, kichik serjant Safiya Yunusovaning aytishicha, Odiljon Karimov kitobni o'qimaydi, balki unda yashaydi. Uning kitob tanlashdagi didi ham o'ziga xos. U ko'proq inson ruhiyati, hayot falsafasi va milliy qadriyatlarni yorituvchi asarlarga murojaat qiladi. Bu esa uning nafaqat mutaxassis sifatida, balki shaxs sifatida ham boyib borayotganini ko'rsatadi.

Lavhamiz qahramoni viloyat ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida «Zukko kitobxon», «Zakovat» intellektual o'yinlarini tashkil etishda tashabbuskorlardan biri. Bir qator tanlovlarda faol ishtirok etib viloyat, respublika bosqichlarida faxrli o'rinni egallagan. Uning tashabbuslari yosh kadrlarni bilimli va fikrli etib tarbiyalashga, kitobxonlikni keng targ'ib etishga qaratilgan.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Munosabat

YANGI DO'STIMIZ

Men har qanday axborotni faqat rasmiy va ishonchli manbalardan olishga intilaman. Ayniqsa, bolalarga ma'lumot berishda, ularga ta'lim va tarbiya ulashishda har bir so'zning aniqligi va haqqoniyligiga katta e'tibor qaratish lozim. Bu borada «Postda Bolajon» ilovasi ayni muddao bo'ldi.

Asli ko'p yillardan buyon «Postda»-«Ha پوست»-«At the post» gazetasi doimiy muxlislaridanmiz. Turmush o'rtog'im Husniddin Abloqulov Jizzax viloyati Transportda XTB JQBda tezkor xodim sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois ushbu nashr oilamiz uchun juda yaqin va qadrli. Gazetaning har bir sonini intizorlik bilan kutib olamiz va katta qiziqish bilan mutolaa qilamiz. Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangiliklar va muhim tashabbuslar bilan aynan shu manba orqali tanishib boramiz. Ayniqsa, nashr sahifalarida bolajonlarimiz uchun ham alohida joy ajratilgani bizga katta quvonch bag'ishladi. Bu kreativ yondashuv va zamonaviy tafakkur mahsulidir. Bolalar uchun mo'ljallangan sahifalarda hayotiy masalalar rasmlar, topishmoqlar hamda qisqa hikoyalar orqali sodda va tushunarli tarzda yoritilgani tarbiyaning eng samarali usullaridan biri ekanini yana bir bor isbotlaydi.



Adliya vazirligi tomonidan yaratilgan «Bola huquqlari» portali orqali qonun-qoidalar bolalarga mos, sodda va ravon tilda tushuntirib beriladi. Har ikkala tashabbus ham bir maqsad – yosh avlodni huquqiy jihatdan bilimli, ongli va barkamol qilib tarbiyalashga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir. Bu kabi ezgu ishlar jamiyatimiz kelajagi, huquqiy savodxon va tarbiyali avlod orzusi yo'lidagi bir qadamdir. O'ylaymanki, yangi ilovaning nishona soni kelgusida yanada ta'sirchan, o'qishli va qiziqarli bo'lib bo'raveradi.

Iroda ABLOQULOVA,
Jizzax viloyati Adliya boshqarmasining huquqiy axborot bo'yicha bosh maslahatchisi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati yo'nalishidan kelib chiqqan holda bolalarga to'g'ri bilim berish, ularni ongli va mas'uliyatli qilib tarbiyalashda ana shunday innovatsion yondashuvlar juda muhim. Bu kabi tashabbuslar orqali bolalar nafaqat bilim oladi, balki hayotda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

O'zim adliya tizimida faoliyat yuritganim sababli, bu sohada ham shunga o'xshash ezgu ishlar amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Jumladan,

Qo'limda «Postda-Ha پوست-At the post» gazetasi navbatdagi yangi soni. Har doimgidek, sahifalarni birma-bir varaqlar ekanman, «Postda bolajon» deb nomlangan yangi ilovaga ko'zim tushdi. Xursand bo'lib ketdim.



Bolalikdan yurtga mehr qo'ygan bola ertaga o'z tomiga tosh otmaydi.

Sahifadagi bolalar olamiga mos mitti xabarlar, ibratli hikoyachalar, buyuklarning bolaligi haqidagi tarixiy manbalar, aqlni charxlovchi topqirlik saboqlari, ayniqsa, bolalarga xos mehr bilan chizilgan rang-barang rasmlardan zavqlandim.

Gazetaning yangi soni bilan tanishayotgan xodimlarga ham yangi sahifa ma'qul bo'ldi. «Doim gazetani ishxonada o'qib shu, yerda qoldirib ketardim. Endi uyga olib ketaman – farzandlarim o'qiydigan sahifa

ham qo'shilibdi» – deydi koloniyaning tarbiyaviy ishlar bo'limi xodimi, mayor Jamshid Bolbekov xursand bo'lib.

Bolalar qo'lga qalam oldimi, bilingki, o'sha yerga beg'uborlik yetib boradi. Beixtiyor o'sha yerga siz ham talpinasiz. Yangi sahifa ham go'yoki shunday.

Ishonamizki, jasurlikni o'ziga shior qilgan Jasurbek va adolat posboni Adolatxon yo'lga chiqqan manzilda hali ko'p ibratli ishlarga guvoh bo'lamiz.

Mitti posbonlarning qadamlari bilan beg'ubor yuraklarga Vatanni bolalikdan sevishni singdirib, yurtga bo'lgan sadoqatni o'rgatib boradilar. Bolalikdan yurtga mehr qo'ygan bola ertaga o'z tomiga tosh otmaydi.

Istaymizki, mazkur sahifaning muxlisleri yanada ko'payib, mo'l-ko'l bo'ladi.

Ushbu xayrli yo'lda gazeta fidoiylariga kuch-quvvat, ijodiy g'ayrat, yangi sahifalar tashabbuskorlariga esa charchamaslik tilaymiz.

Nilufar DAVIDOVA,
13-sonli JIEK Axborot-resurs markazi mudirasi.

Diqqat: e'lon

Aziz mushtariylar!

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi nashrlari – «Postda-Ha پوست-At the post» gazetasi va «Qalqon-Щит-Shield» jurnali tahririyati tomonidan 14-yanvar – Vatani himoyachilari kuni munosabati bilan o'tkazilayotgan ijodiy tanlovga yuborilgan ayrim materiallar belgilangan talablarga to'liq javob bermadi. Shuningdek, bu holat tanlovning to'laqonli o'tkazilishiga monelik qildi. Shu bois tanlov muddati uzaytirildi.

Tanlovda ichki ishlar organlari xodimlari va harbiy xizmatchilar faoliyatini yorituvchi maqolalar, she'rlar va hikoyalar bilan ishtirok etish mumkin. Qatnashuvchilar 18 yoshdan oshgan bo'lib, ularning kasbi va ijtimoiy mavqei cheklanmaydi.

Tanlovga materiallar 2026-yil 10-iyungacha qabul qilinadi. Tanlov natijalari 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunida e'lon qilinadi.

Bir so'z ta'rifi

LAGANBARDOR

«Laganbardor» so'zi o'zbek tilida xushomadgo'y, muttaham, o'z manfaati yo'lida boshqalarga past ketuvchi shaxslarga nisbatan ishlatiladigan ko'chma ma'nodagi so'zdir. Bu so'zning kelib chiqishi tarixiy va maishiy turmush tarzi bilan bog'liq.

So'zning tarkibi va ma'nosi quyidagicha. So'z ikki qismdan iborat bo'lib, **lagan** – ovqat solinadigan katta idish (palov va h.k.). **Bardor** – fors tilidagi «bardoshtan» (ko'tarmoq, olib yurmoq) fe'lidan olingan bo'lib, «ko'taruvchi», «olib yuruvchi» ma'nosini beradi.



Kelib chiqish tarixi: «Laganbardor» atamasi qadimda boy, amaldor yoki ziyofat uyushtiruvchi shaxslarning dasturxonida ularga yaqin turib, «laganni ko'tarib xizmat qiluvchi», ya'ni ularning ko'ngliga qarash, ovqat ulashish orqali xushomad qiluvchi shaxslarga nisbatan ishlatilgan.

Tarixiy mazmuni: Bunday odamlar o'zining laganbardorlik faoliyati orqali xo'jayinning nazariga tushish, uning marhamatiga erishish yoki mansab olishni maqsad qilgan.

Ko'chma ma'nosi: Vaqt o'tishi bilan bu so'z faqat lagan ko'taruvchini emas, balki biror kimsaga o'ta xushomadgo'ylik qiluvchi, uning har bir gapini ma'qullovchi kimsani anglatuvchi ijtimoiy-psixologik atamaga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, laganbardor – «xo'jayining laganini ko'tarib, unga xushomad qiluvchi» degan ma'noni anglatadi.

Bu so'z hozirda o'z manfaati uchun mansabdor oldida o'zini juda tuban tutib, unga xushomad qilishga tirishadigan pastkash odam, xushomadgo'y kishilarga nisbatan qo'llaniladi. Shuningdek, laganbardorning – xushomadgo'y, yaltoq, tilyog'lama kabi sinonimlari bor.

Laganbardor – ikki yuzlamachi, buqalamun singari sharoitga qarab turlanuvchi odam deb ta'riflansa, ayrim lug'atlarda lo'ttiboz, sotqin, xoin, bevafo, xiyonatkor deb sifatlanadi. Ba'zi adabiyotlarda laganbardor o'zi fosiq va bid'atchi deb bilgan odamini yaxshi, to'g'ri yo'ldagi odam, deya ta'riflab, yaltoqilik qiladi, deyilsa, ayrimlarida ular munofiq, yolg'onchi bo'ladi, deb ta'rif berilgan. Tilimizdagi yumshoq supurgi ta'rifi ham aynan laganbardorlarga nisbatan aytiladi.

Shoirilar o'z she'rlarida «Ichak-chovoq go'sht bo'lmas, laganbardor do'st bo'lmas» deb ta'rif berishgan.

Shuhrat RO'ZIYEV tayyorladi.

ISHDAGI STRESSNI BOSHQARISH MUHIM

Hozirgi kunda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari orasida xizmat paytidagi stress hamda ruhiy buzilish holatlari uchrab turadi. Jumladan, bunday ahvoldagi xizmatchilar uyqusizlik, tajovuzkorlikning ortishi, diqqatni jamlay olmaslik kabi holatlarni boshdan kechirishadi.



Xorij tajribasini o'rganish jarayonida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasida, xodimlarning 61-67 foizi doimiy kasbiy stress va charchoqni his qilishini bildirgan. Bunga sabab esa, ish hajmining yuqoriligi va vaqt yetishmasligi, murakkab ish grafigi, tungi navbatchiliklar, yuqori mas'uliyat va psixologik xavfsizlikning pastligi kabilardir.

Natijada xodimlarning 35 foizdan 45 foizgacha bo'lgan qismi bunday holatlarni no-maqbul yo'llar bilan bartaraf etishga urinadi. Eng keng tarqalgan usullardan biri tamaki mahsulotini xuddi «qisqa muddatli tanaffus» yoki «fikrlarni jamlab olish imkoniyati» kabi bahonalar bilan iste'mol qilish.

Keyingi yanada abgorroq turi «ish kunini yakunlash» yoki «to'yib uxlab olish» vositasi sifatida alkogolli ichkilik iste'mol qilish hisoblanadi.

Mazkur «vositalar» stressni bartaraf qilmaydi, aksincha yurak urishini tezlashtirib, zo'riqish paydo qiladi. Ichkilik ta'sirida uyqu fazasi buzilib, kishi ertasi kuni yanada charchagan holda uyg'onadi. Eng xavfli tomoni shundaki, ichkilikka ruju qo'ygan xodimning organizmi vaqt o'tishi bilan ko'proq doza talab etadi. Bu esa xizmat intizomiga va salomatlikka jiddiy putur yetkazadi.

Yana bir achinarli jihati shundaki, pensiyaga kuzatilgan xodimlar ma'lum sabablarga ko'ra zararli odatlarga oddiy fuqarolarga nisbatan ko'proq (13-18 foiz) o'rganib qolishi mumkin. Buning asosiy sabablari sirasiga qat'iy ish jadvalining buzilishi, xotirada qolgan salbiy holatlar depressiyasi, tizimdan tashqari hayotga moslasha olmaslik, o'zini keraksizdek his qilish kabilardir.

Shaxsiy tarkib o'rtasida yuqoridagi kabi holatlarni profilaktika qilish uchun xodimlarni muntazam ravishda stressga chidamlilik va depressiya darajasini aniqlovchi testlardan o'tkazish, xodimning odatiy ishidagi o'zgarishlarini (kechikishlar, jizzakilik, jamoadan ajralish) kuzatish orqali tahlil qilish zarur.

Profilaktik choralar samarali bo'lishi uchun xodimda «Agar muammoimni aytsam, meni xizmatdan haydashmaydi, balki yordam berishadi», - degan ishonch bo'lishi kerak. Jazolash choralarini faqat jinoiy holatlarda qo'llanilishi, psixologik inqirozda esa reabilitatsiya tizimi ishlashi zarur.

Zohid FAYZULLAYEV,
IIV JXD HPX Yoshlar masalalari bo'yicha bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

Qashqadaryo viloyati IIB rahbariyati, shaxsiy tarkibi va Faxriylar kengashi iste'fodagi polkovnik
Nizomiddin G'ULOMOVning
vafot etganligi munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

Bugungi xizmat faoliyatida ko'plab xodimlar kun bo'yi kompyuterda ishlaydi, hujjatlar tayyorlaydi, bir vaqtning o'zida bir nechta vazifani bajaradi. Bunday holat asta-sekin ichki zo'riqishni kuchaytiradi. Kun oxiriga borib bosh og'irlashadi, ko'z charchaydi, diqqat susayadi, jahl tez chiqadi va oddiy ish ham qiyindek tuyula boshlaydi.

Eng katta xato bu holatda o'zini majburlab ishlashda davom etishdir. Chunki bunda stress kamaymaydi, aksincha yanada ortadi. Natijada ish sifati pasayadi, fikr tarqoqlashadi va odam o'zini yanada holgan toygan his qiladi.

Masalan, xodim ertalabdan kechgacha muayyan topshiriq va vazifalarni bajaradi. Telefon qo'ng'iroqlari, yozishmalar va topshiriqlar ko'payib ketdi. Kechga borib

fikrlashni va ish unumdorligini saqlashga yordam beradi.

Shuni unutmazlik kerakki, ishdagi stressni o'z vaqtida anglash va to'g'ri boshqarish xodimning nafaqat ish samaradorligi, balki sog'lom ruhiy holati uchun ham muhimdir. Inson o'zini asray olsa, vaziyatni xotirjam baholaydi, to'g'ri qaror qabul qiladi va xizmat vazifalarini yanada samarali bajaradi. Oddiy, lekin o'z vaqtida

Psixologning amaliy maslahati

Agar charchoq, jahl yoki ichki bosim ortib borayotganini sezsangiz:

<p>1 - BOSQICH. Darhol to'xtang, 2-3 daqiqa tin oling.</p> <p>To'xtash - tiklanishning birinchi qadami.</p>	<p>2 - BOSQICH. Kompyuterdan uzog'lashing. O'rningizdan turing, ko'zingizni ekrandan oling, gavgangizni rostlang.</p> <p>Gavda harakati va dam - miyaga yaxshi yordam.</p>	<p>3 - BOSQICH. Nafasni me'yorlashtiring. Bir necha marta sekin nafas olib, sekin chiqaring. Bu ichki shoshqaloqlikni kamaytiradi.</p> <p>Sequin nafas - xotirjamlik kaliti.</p>	<p>4 - BOSQICH. Ishlarni ajrating. Oldingizdagi vazifalarni uch qismga bo'ling: hozir qilinadigan ish, keyin qilinadigan ish, kutib turishi mumkin bo'lgan ish.</p> <p>Reja - bosimni kamaytiradi va aniqlik beradi.</p>
<p>5 - BOSQICH. Tanaga yengillik bering. Suv iching, biroz yuring, bo'yin va yelkani bo'shating, ko'zga qisqa dam bering.</p> <p>Kichik tana dami - katta energiya manbai.</p>	<p>6 - BOSQICH. Ishni navbat bilan davom ettiring. Hamma ishni birdan qilishga urinmang. Eng muhimidan boshlang.</p> <p>Muhimidan boshlang, bosqichma-bosqich davom eting.</p>	<p>7 - BOSQICH. Ishdan keyin o'zingizni tiklang. Uyga borgach darhol yangi yuklamaga sho'ng'imang. 15-20 daqiqa tinchlanishga vaqt ajrating.</p> <p>Tiklanish - ertangi kun uchun eng yaxshi tayyorgarlik.</p>	<p>8 - BOSQICH. Agar bunday stress har kuni takrorlansa va charchoq o'tmasa, mutaxassis yoki ishonchli insonga murojaat qiling.</p> <p>Yordam so'rash - kuch, zaiflik emas.</p>

u charchadi, bezovta bo'ldi va diqqatini jamlay olmay qoldi. Bunday paytda eng to'g'ri yo'l o'zini majburlab ishlash emas, balki qisqa muddat to'xtab, nafasni rostlashdir.

Ishdagi stressni butunlay yo'qotish har doim ham mumkin emas. Lekin uni vaqtida sezish va oddiy choralar bilan boshqarish mumkin. Aynan shunday yondashuv xodimga xotirjamlikni, aniq

ko'rilgan choralar katta zo'riqishning oldini oladi. O'zingizga e'tiborli bo'ling, chunki ichki xotirjamlik va barqarorlik ham xizmat intizomining muhim qismi hisoblanadi.

Naufal TURG'UNOV,
IIV MMI va KBTD katta psixolog-poligrafologi, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), kapitan.

Sportni sev, sport bilan yasha!

YOSH CHEMPIONNING ZAFARLI YO'LI

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish hamda xalqaro maydonlarda munosib ishtirok etadigan sportchilarni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ana shunday istiqbolli yosh sportchilardan biri Sherzod Anvarovdir.

Hozirda IIV 1-son Akademik litseyining 1-bosqichida tahsil olayotgan lavhamiz qahramoni allaqachon sport sohasida sezilarli natijalarga erishib, tengdoshlariga o'rnak bo'lib kelmoqda.

U sport bilan juda erta – atigi 5 yoshidan shug'ullana boshlagan. Muntazam mashg'ulotlar, murabbiylar ko'rsatmalariga qat'iy amal qilish va o'z ustida tinimsiz ishlash natijasida u qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishdi. Ayniqsa, sportning «Fudokan karate» yo'nalishidagi yutuqlari e'tiborga molik. U 8 yoshidayoq ushbu sport turi bo'yicha qora belbog' sohibiga aylangan.

Sherzod Anvarov respublika miqyosida ham, xalqaro arenalarda ham o'z salohiyatini muvaffaqiyatli namoyon etmoqda. U to'rt karra O'zbekiston chempioni degan

sharafli unvonga ega. 2023-yilda o'tkazilgan jahon chempionatida faxrli uchinchi o'rinni egallab, ilk bor jahon miqyosida o'zini namoyon qildi.

2024-yil yosh qahramonimiz uchun yanada muvaffaqiyatli bo'ldi. Xususan, Rossiyada o'tkazilgan Jahon kubogida ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Shu yilning o'zida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan «Kosiki karate» bo'yicha Osiyo chempionatida barcha raqiblarini ortda qoldirib, oltin medal sohibi bo'ldi.

2025-yilda o'tkazilgan Yevroosiyo musobaqalarida ham yuqori natija qayd etib, kumush medalga sazovor bo'ldi. 2026-yil esa uning faoliyatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu yili u Kosiki karate bo'yicha Jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritib, o'zining yuqori darajadagi sportchi ekanini yana bir bor



isbotladi. Ushbu yutuqlari evaziga u sport ustaligiga nomzod maqomiga erishdi.

Sherzodning muvaffaqiyatlari ortida, albatta, tinimsiz mehnat, qat'iyat va murabbiylarining fidokorona sa'y-harakatlari mujassam. U nafaqat sportda, balki ta'limda ham faol bo'lib, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari sari dadil qadam tashlamoqda.

– O'rta maktabni tamomlagach, ta'lim olish uchun Ichki ishlar vazirligi akademik litseyini bejiz tanla-

ganim yo'q. Sport bilan birga huquqiy bilimlarimni oshirib, kelajakda ichki ishlar organlari safida xizmat qilish niyatidaman, – deydi u.

Bugungi kunda Sherzod Anvarov kabi yoshlarimizning yutuqlari yurtimiz sportining kelajagi porloq ekanidan dalolat beradi. Uning natijalari nafaqat tengdoshlari, balki undan keyingi yosh sportchilar uchun ham katta ilhom manbayidir.

Sport bilan muntazam shug'ullanish yoshlarda in-

tizom, qat'iyat, maqsad sari intilish va mas'uliyat hissini shakllantiradi. Ayni paytda ko'plab yosh sportchilari-miz xalqaro arenalarda yurtimiz sha'nini munosib himoya qilib, yuqori natijalarga erishmoqda.

Shubhasiz, oldinda Sherzod Anvarovni yanada yirik musobaqalar, yangi g'alabalar va ulkan marralar kutmoqda. Yosh chempionimizga kelgusida ham omad va zafarlar tilaymiz.

Madina QAHHOROVA,
katta leytenant.

Salomatlik



Ko'pchilik sevib iste'mol qiladigan qulupnay nafaqat shirin va mazali, balki sog'liq uchun ham juda foydali mevadir. Uning tarkibida uglevodlar (glyukoza, fruktoza, saxaroza), limon va olma kislotalari, turli moddalar hamda fenol birikmalari mavjud. Shuningdek, u A, C, B guruhi vitaminlari va temir, mis, kobalt, marganets, molibden hamda ftor kabi minerallarga boy.

Ma'lumki, ko'plab vitaminlar qayta ishlash jarayonida yo'qoladi, ammo qulupnay tarkibidagi ayrim vitaminlar qayta ishlanganda ham ma'lum darajada saqlanib qoladi. Agar semirishga moyil bo'lmasangiz, qaymoq, smetana yoki tvorog bilan birga iste'mol qilish mumkin. Sut mahsulotlaridagi yog'lar ichak devorlarini himoyalab, qulupnayning bezovta qiluvchi ta'sirini kamaytiradi. Ammo qulupnayni shakar bilan iste'mol qilish tavsiya etilmaydi, chunki organizmda shundoq ham shakar miqdori yetarli bo'ladi.

Bu xushta'm mevani ovqatdan keyin iste'mol qilish kerak, chunki u

oshqozonda biyg'ish xususiyatiga ega. Qulupnay immunitetni mustahkamlaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, u zararli odatlarga ega insonlarda ayrim kasalliklar xavfini kamaytiradi. Shuningdek, kam kaloriyalı mahsulot hisoblanadi. Unda yog' deyarli yo'q, oqsil va fruktoza yetarli miqdorda bo'lib, parhez tutayotganlar uchun juda mos keladi.

Kosmetologiya sohasida ham qulupnayning o'rni katta. Qulupnay va uning sharbati terini oziqlantiradi, ajinlarni kamaytiradi, dog' va sepkillarga qarshi samarali ta'sir ko'rsatadi. Uy sharoitida undan osongina yuz niqobi tayyorlash mumkin. Shu bilan birga, qulupnay

XUSHTA'M REZAVOR MEVA



ichaklarni tozalash, jigar va buyrak faoliyatini yaxshilash, qabziyat va kamqonlikka qarshi kurashishda ham foydali hisoblanadi.

Biroq tabiatning bu ne'mati barchaga ham birdek to'g'ri kelavermaydi. Uning tarkibidagi kislotalar oshqozon-ichak kasalliklari bor insonlar uchun zararli bo'lishi mumkin, ayrimlarda esa allergiya chaqirishi ehtimoli bor. Qon bosimi yuqori bo'lganlarga ham uni ehtiyotkorlik bilan iste'mol qilish tavsiya etiladi. Eng muhimi —

me'yordan oshirmaslik: bir kunda taxminan 500 gramdan ko'p iste'mol qilmaslik kerak. Yetti yoshgacha bo'lgan bolalarga qulupnay berish tavsiya etilmaydi, kattaroq bolalarga esa kunlik me'yor 100 gramdan oshmasligi lozim.

Karomat QODIROVA,
Namangan viloyati IIB Tibbiyot bo'limi pediater-shifokori.
Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Genri SLEZAR

TARKI ODAT – AMRI MAHOL

Ralf chiqayotib eshikni jahl bilan taraqlatib yopdi. Rut va turmush o'rtog'i o'rtasida go'yoki begonalik devori o'sib chiqqandek edi. Ikkovi ham azoblanar, biroq qo'llaridan hech narsa kelmasdi. Oila qurganiga deyarli o'n yil bo'lgan bu juftlik ilgari arazlab qolishganida bir-biri bilan yarashib olmaguncha uxlolmas edilar. Biroq bu safar unday bo'lmadi.

Rut ertalab uyg'ongach, chuqur xo'rsinib, mehmonxonaga kirdi. O'rindiqqa o'tirib, xayolga cho'mdi. Bu yog'iga nima bo'lishini u yaxshi bilardi. Eri o'z ofisiga yetib borib, Rutning onasiga qo'ng'iroq qilib, kechagi voqeani oqizmay-tomizmay aytib beradi. So'nggi uch hafta ichida bu uchinchi bor takrorlanayotganini ham ta'kidlaydi.

* * *

Rutni «Bu qanday sodir bo'ldi? Qanday boshlandi? Men nega o'g'rilik qilyapman? Menga shifokor yordam bera oladimi?» qabilidagi savollar qiyvardi. Nima uchun u Vashington-avenyudagi do'kondan bir g'altak ipni sezdirmasdan olib chiqib ketdi? Attorlik do'konidan o'g'irlangan sadaf rangli arzon tugmachalarni-chi? To'rtinchi avenyudagi kiyim do'konidan olingan oqshom sumkachasi uchun nega haq to'lamadi?

Hamma uni tushundi. Hamma. Ularning bari Ralfga qo'ng'iroq qilishdi. Rut allaqanday o'g'ri emas, muammosi bor ayol ekanligini anglab yetishdi. Hammasi bosdi-bosdi qilindi. Ralf olingan narsalar uchun haq to'ladi. Bu hol yana takrorlanganda, aniqlik kiritilishi uchun, ayolning ism-sharifi va ko'rinishi kartotekaga kiritildi.

Soat o'n birda u qo'ng'iroq ovozidan uyg'olib ketdi. Rut bu eshik qo'ng'irog'i ekanligini darrov anglab yetmadi. Ostonada begona erkak turardi. U bosh kiyimini yechib, salomlashdi. Notanish kimsa taklifni ham kutmay ichkariga kirdi va eshikni yopdi. U past bo'yli, qizargan, hatto biroz kuygan yuzli kishi edi.

- Rut Mudi, shundaymi? – so'radi u.
- Ha, – ayol qo'rquvdan ko'ra g'azabni ko'proq his etardi.
- Siz bilan bir ish yuzasidan gaplashmoqchi edim.
- Qanaqa ish? Nimadir sotish uchun kelgan bo'lsangiz...

– Men sotib olaman, – masxaromuz kuldi notanish kimsa. – O'tirsam maylimi?

U shimining pichoq tig'idek o'tkir taxlamini buzmaslik uchun divanga ehtiyotkorona o'tirdi. So'ng davom etdi:

– So'zlarimni diqqat bilan eshitsangiz yaxshi bo'lardi. Bu eringiz bilan bog'liq.

Ayol uning qarshisiga kelib o'tirdi.

- Nimani nazarda tutyapsiz?
- Eringiz haqida bir talay ma'lumotga egamiz, – dedi u. – Qaysidir ma'noda siz haqingizda ham. Agar hammasini birlashtir-sak, ko'ngilsizliklar yuzaga kelishi mumkin.

Chaqirilmagan mehmon bosh kiyimini yonidagi yostiqa ustiga qo'ydi.

- Mudi xonim, – davom etdi u. – Ming dollar ishlab olishga nima deysiz?
- Nima? – so'radi Rut hech narsaga tushuna olmay.

– Sizga arzimagan taklifim bor. Menga yordam bersangiz, ming dollar olasiz. Aks holda eringiz ishda moliyaviy qiyinchiliklarga uchraydi. Nima deyayotganimni tushungandirsiz?

- Yo'q!
- Keling, sizga buni boshqa yo'l bilan tushuntiraman. Faraz qiling, rahbarsiz. Va qo'l ostingizda ishlaydigan xodimning turmush o'rtog'i do'kon o'g'risi ekanligidan xabar topdingiz...

Rut qo'llari bilan og'zini berkitdi.

– Endi nimani nazarda tutayotganimni tushungandirsiz? Bu vaziyatni o'zgartiradi, shunday emasmi? Aytmoqchimanki, hozirgi zamonda xodimning oilasi muhim ahamiyatga ega. Firma sha'ni haqida o'ylash kerak, u birinchi o'rinda turadi.

- Qayerdan bildingiz? – so'radi noilojlikda qolgan Rut. – Sizga kim aytdi?
- Mendan bu haqda so'ramang, Mudi xonim. Aytaylik, ishonchli manbalarim bor. Biroq tushkunlikka tushmang. Axir, bu xuddi zotiljam yoki bezgak kabi kasallik-ku. Siz uning oldida oqizsangiz. O'zingizni boshqara olmaysiz.



- Rut unga g'azab bilan tikildi.
- Sizga qancha pul kerak? – so'radi u. Notanish shaxs qo'l siltadi.
- Menga chaqalaringiz kerak emas, Mudi xonim. Axir, aytdim-ku. Bu yerga sotib olish uchun keldim.
- Ammo nimani?
- Xizmatlaringizni. Bizga yordamingiz kerak, xolos. Shundan so'ng ming dollarni qo'lga kiritasiz. So'zlarimga ishoning, bu bilan hech narsa yutqazmaysiz.
- Nima qilishim kerak?
- Buni sizga men aytolmayman. Bir do'stim bor. U sizga hammasini aytib beradi. Hozir esa siz men bilan borishingiz zarur. Do'stim sizga hammasini tushuntiradi. Bu qiyin ish emas, ishoning. Bundan hech ham afsuslanmaysiz.
- Rut o'rnidan turdi.
- Siz bilan bormayman.
- Notanish kimsa tirjayib, kamzulining ichki cho'ntagidan tashrif qog'ozi chiqardi. Qalam bilan bitirgan yozuvni o'qiy boshladi: «Otto Mevyus va Kompaniya, Beshinchi avenyu 420».
- Eringiz o'sha yerda ishlaydi, shundaymi?

(Davomi kelgusi sonda).

Luqma

QAHVAXONAMI YOKI VAH-VAH-XONA?

Dam olish kunlari edi. Oilamiz bilan shinam bir yemakxonaga bordik. Qahvaxonaga kirarkanmiz, qizim «Mana bu yerga o'tiraylik, televizorning oldida o'tirib ovqatlanish yaxshi-da» dedi. Bizga ham uning fikri ma'qul kelib, tanlangan joyga o'tirdik.

Tanovul qilib, chaqchaqlashib o'tirardik, ekranda bexosdan yarim yalang'och xonanda paydo bo'lib, qo'shiq ayta boshladi. Uning jozibador, desam, noo'rin bo'lar, jazavador qo'shig'i, behayo qiliqlari, boz ustiga, tanasini ko'z-ko'z qilayotganidan uyalib ketdim. Farzandlarim oldida o'zimni noqulay seza boshladim.

Boshimni quyi eggancha zimdan yon-atrofdan o'tirganlarga razm soldim. Ularning ham ayrimlari bu tomoshadan xijolat bo'lishayotganini sezish qiyin emasdi. Xayolimdan shu yerga o'tirmasak bo'larkan, degan pushaymon kechdi. Ammo endi kech edi...

Qo'shiq tugab, yangisi boshlandi. Bunisi undan ham battar chiqdi. Sezdimki, bolalarim ham bizdan uyalganidan o'zlarini noqulay his qila boshlashdi. Ammo hamma birday emas, nariroqda o'tirgan yoshlar xonandaning to'satdan qilgan bejo harakatini ko'rib, vah-vah, vah-yey, deb qarsak chalib yuborsa bo'ladi-mi...

Turmush o'rtog'im yalt etib menga yuzlandi. Chunki o'tirish joyini qizim tanlagan bo'lsa-da, shu qahvaxonaga kirish taklifini men aytgandim. Kalovlanib nima deyishni bilmay qoldim. «E'tibor bermanglar, bu bizning yurtimizda emas», dedim -u, vah-vahachilarning o'zimizdan ekanidan dovdirab qoldim. Nima deyishni bilmay, qahvaxona xodimini chaqirdim.

«Uka, uzr, o'zimizning milliy telekanallardan biriga qo'ying», dedim arang. «Kechirasiz, opa bizda milliy telekanallar yo'q» deya javob berdi u. Shundan so'ng bu behayo xorijiy qo'shiqlar, xonandalar harakatla-

ri farzandlarimizning tarbiyasiga, dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatishini o'ylab, tezroq turish taraddudiga tushdik.

Qahvaxonadan chiqarkanmiz, beixtiyor o'ylanib qoldim. Milliy mentalitetimizga mutlaqo yot, tarbiyamizga zid dasturlar yosh avlod qalbiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida nega o'ylamaymiz. Nega aksariyat oilaviy dam oladigan ko'ngilochar maskanlar, yemakxonalarda milliy telekanallar namoyish etilmaydi? Xo'sh, siz bunga nima deysiz?

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

ЭЛДА ШАРАФ ТОПГАН ГЕНЕРАЛЛАР

Ушбу сурат 2006 йил 20 июнь куни ИИБ Тошкент олий ҳарбий техника билим юрти ҳовлисида тарихга муҳрланган. Эсимда, ўша куни ушбу билим юртида навбатдаги тантанали битирув маросими бўлиб ўтди. Битирув тадбири тугагандан сўнг ИИБ Ёнғин хавфсизлиги олий техник мактаби бошлиғи, генерал-майор Матрасул Собиров мени чақиртирди.

– Чарчамадингми, бизниям бир суратга ол, – дедилар. У кишининг ёнида ИИБ Академияси бошлиғи, генерал-майор Тоҳир Муллажонов ва ИИБ Тошкент олий ҳарбий техника билим юрти бошлиғи, генерал-майор Шуҳрат Ниязов турар эди.

Эътибор берган бўлсангиз, суратда минглаб офицерларнинг устозлари, забардаст генераллар савлат билан, самимий туришибди. Улар мустақил Ўзбекистонга етук ва ватанпарвар кадрларни етказиб берган, энг нуфузли ҳуқуқни муҳофаза қилувчи олий, ҳарбий таълим даргоҳларнинг раҳбарлари бўлишган.

Суратнинг чап томонидаги марҳум генерал-майор Матрасул Собиров ва ўнг тарафдаги марҳум генерал-майор Шуҳрат Ниязовларни бугун шогирдлари уларнинг касбига фидойилиklarини, эзгу амаллари ва хайрли ишларини тез-тез эслашади.

Ўртада турган генерал-майор Тоҳир Муллажонов ҳамон сафда бўлиб, бугунги кунда ИИБ Академиясида тингловчиларга таълим, тарбия бериб, бой тажрибасини ёш ходимларга ўргатиб келмоқда.

Ҳарбийларда «Генералликни орзу қилмаган аскар аскар эмас», деган бир гап бор. Шу инсонлардек генерал бўлишни ким орзу қилмаган дейсиз. Бундай устозларни яхшилик билан эшлаш барча шогирдлар бурчидир.

Абу КЕНЖАЕВ,
фотомухбир.



Маънолари қуйида баён этилган ўнта очқич сўзни топиб, уларни матнга шундай ёзиб чиқингки, ҳар қайси ҳарф бир хилдаги биттадан рақам остида бўлсин. Кейин шу ҳарфларни шакл хоналаридаги мос рақамлар тагига бирма-бир ёзиб чиқсангиз, бошқотирмада Шарқнинг улуг шoirларидан бири бўлмиш Амир Хусрав Дехлавий қаламига мансуб ҳикматлардан бирини ўқийсиз.

БОШҚОТИРМА



ОЧҚИЧ:

- I. «Ҳаёт қисқа, лекин 20, 21, 1, 10, 2, 4 мангу бўлиши мумкин» (Цицерон).
- II. «13, 2, 10, 5, 8, 9, 12 майдонида бел синаш учун Жасур ўзбек халқининг ўғли отланди» (Фафур Фулом).
- III. «Мерган овда билинар, 14, 7, 4, 9, 10 ёзда билинар» (мақол).
- IV. «Бермагил ёвузларга бир дақиқа хушнудлик, Гул Ватаннинг мард ўғли, кўкрагингни 6, 2, 8, 6, 7, 16 қил» (Файратий).
- V. «Бу гулшан ичра йўқтур бақо гулига сабот, Ажаб 11, 2, 7, 5, 2, 4 эрур чиқса яхшилик била от» (Алишер Навоий).
- VI. «Таҳсин айтай мен одамлар мардига, Мард ярайди доимо 17, 8 дардига» (Пўлат Мўмин).
- VII. Инсон ҳақидаги ёдда, эсда қолган яхши таассурот – 19, 7, 4, 9, 10, 2.
- VIII. Ватан қаҳрамонлари, машҳур кишилар хотирасини абадийлаштириш учун ўрнатилган тасвирий санъат асари – 1, 2, 15, 12, 2, 8.
- IX. Бу дунёдан ўтган асл инсоннинг эзгу ишларини, Ватан, эл-юрт олдидаги хизматларини яна бир бор эслатиб ўтиш мақсадида ёзилган мақола – 3, 5, 16, 7, 13, 2.
- X. Ҳайкал, ёдгорлик пойига чуқур эҳтиром рамзи сифатида қўйиладиган хушбўй чечак – 18, 21, 8.

Ҳамидулла АБДУЛЛАЕВ тузган.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
podpolkovnik
Xurshidbek RO'ZIYEV

Bosh muharrir
o'rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir
Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Shuhrat RO'ZIYEV
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 1286.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
49771 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Korxonaning manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.